


Marifat

Kuch – bilim va tafakkurda

Ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy nashr

Xalq ziyolilari gazetasi // 1931-yildan chiqa boshlagan // e-mail: info@marifat.uz // 2026-yil 16-sentabr chorshanba №37(9622)

DAVLAT MAKTABLARIDAGI PULLIK SINFLAR:



2-3 -betlar

QO'SHIMCHA IMKONIYATMI

YOKI TA'LIMDAGI
TABAQALANISH?

Pullik ta'limning og'ir oqibati faqat oila budjeti bilan bog'liq emas. U bolalar o'rtasida norasmiy maqom farqini ham paydo qilishi mumkin: "pullikdagilar" va "oddiylar"; "qoladiganlar" va "ketadiganlar"; "qo'shimcha o'qiydiganlar" va "o'qimaydiganlar"... Bu atamalar hech qanday nizom yoki shartnomada yozilmaydi, albatta. Lekin bolalar ularni juda tez his qiladi va maktab hayotida bu "tushuncha"lar qo'llana boshlaydi. Shu tariqa ota-onaning moddiy imkoniyati bolaning maktabdagi ta'lim imkoniyatiga, keyin esa psixologik maqomiga aylanishi mumkin. Bir bola o'zini "imkoniyati ko'proqlar" qatorida, ikkinchisi esa "bunday imkoniyatga ega bo'lmaganlar" orasida his qila boshlaydi. Maktabdagi bolalar o'rtasida yangi devor qurish uchun emas, aksin-

PULLIK SINFLAR: yoki ta'limdagi tabaqalanish?

cha, jamiyatdagi mavjud devorlarni yumshatish uchun kerak.

8. Iqtisodiy tengsizlik ta'lim tengsizligiga aylanmasin!

Jamiyatda barcha oilalarning imkoniyati bir xil emas. Kimdir farzandi uchun har oy bir million so'm yoki undan ortiq mablag' to'lay oladi, kimdir esa yo'q. Lekin bu farq bolalarning aqli, qobiliyati yoki intilishidagi farq emas. Tasavvur qilaylik: bir sinfda yonma-yon o'tirgan ikki boladan biri har kuni darsdan keyin yana uch-to'rt soat maktabda qoladi. O'qituvchi bilan ishlaydi, uy vazifasini bajaradi, tushunmaganini qayta so'raydi, xatolarini to'g'rilaydi. Ikkinchi bola esa faqat oilasining to'lov imkoniyati cheklangani uchun bu pedagogik muhit va e'tibordan foydalana olmaydi. Bir kun emas, bir hafta emas, butun o'quv yili shunday o'tsa, ularning natijasi bir xil bo'lmisligi tabiiy. Endi bir yildan keyin shu ikki bolani solishtirib, birini "kuchli", ikkinchisini "kuchsiz" deymizmi? Ammo ularga bir xil imkoniyat berildimi? Bir bola yuzlab soat qo'shimcha pedagogik e'tibor olgan, ikkinchisi olmagan bo'lsa, natijadagi farqning qanchasi qobiliyat, qanchasi imkoniyat farqidir? Eng xavfli ham shu: oiladagi iqtisodiy tengsizlik maktab eshigidan kirib, avval pedagogik imkoniyatlar tengsizligiga, keyin ta'lim natijalaridagi farqqa, oxir-oqibat esa hayot imkoniyatlaridagi tafovutga aylanishi mumkin.

Davlat maktabi jamiyatdagi iqtisodiy tengsizlikni yo'qota olmasligi mumkin. Lekin uni ta'lim orqali yana-da chuqurlashtirmasligi shart.

9. O'qituvchi ham manfaatlar to'qnashuviga tushmaydimi?

Qaror pullik mashg'ulotlarga jalb qilingan pedagoglarni moddiy rag'batlantirish imkonini ham beradi. Bir qarashda bu o'qituvchi mehnatini qo'shimcha rag'batlantirishning oddiy mexanizmi. Ammo masalaning nozik tomoni bor. Pedagog ertalab shu bolaga davlat hisobidan asosiy darsni o'tadi, tushdan keyin esa xuddi shu o'quvchi bilan pullik mashg'ulotda ishlaydi. Shunda tabiiy savol paydo bo'ladi: o'qituvchining eng kuchli metodikasi, eng puxta tushuntirishi, eng katta pedagogik e'tibori qayerda namoyon bo'lishi kerak: asosiy darsdami yoki pullik mashg'ulotdami? Agar pullik mashg'ulot pedagog uchun moddiy jihatdan foydali bo'lsa, tizimning o'zi uni ikki manfaat o'rtasiga tashlab qo'yamaydimi?

Bu yerda gap o'qituvchini ayblash haqida emas. Muammo pedagogning vijdonida ham emas: uni ikki xil manfaat o'rtasiga qo'yayotgan mexanizmda. Halol va vijdonli o'qituvchi ham bunday tizimda noqulay axloqiy vaziyatga tushishi mumkin. Shuning uchun tizim pedagogning shaxsiy haloliligiga tayanib emas, manfaatlar to'qnashuvining o'ziga yo'l qo'yamaydigan qoidalar asosida qurilishi kerak. Eng xavfli – asosiy dars "bazaviy", pullik mashg'ulot esa "haqiqiy samarali dars" sifatida qabul qilina boshlashidir.

10. Pullik sinflar maktab rahbariyati uchun moliyaviy rag'batga aylanmaydimi?

Masalaning yana bir muhim tomoni pullik ta'lim xizmatlari maktabning o'zi uchun ham moliyaviy manfaat manbayiga aylanishi mumkinligidir. Agar pullik guruhlar soni ko'paygan sari maktabga tushadigan mablag' ham ortib borsa, rahbariyatda bunday xizmatlarni kengaytirishga tabiiy iqtisodiy qiziqish paydo bo'ladi. Buning o'zi hali salbiy holat emas, ammo aynan shu nuqtada pedagogik maqsad bilan moliyaviy manfaat o'rtasida nozik chegara yuzaga keladi. Maktab rahbariyati uchun asosiy savol "Qancha ko'p pullik sinf ochdik?" emas, "Qancha bolaga sifatli ta'lim berdik?" bo'lishi kerak. Agar muassasaning qo'shimcha daromadi pullik gu-

ruhlar soniga bog'lansa, vaqt o'tishi bilan qarorlar bolaning pedagogik ehtiyoji asosida emas, moliyaviy samara nuqtayi nazaridan qabul qilinib qolishi xavfi paydo bo'ladi. Masalan, haqiqatan ehtiyoj bor-yo'qligiga qaramasdan yangi guruh ochish, xizmat turlarini ko'paytirish, ota-onalarni unga qiziqitirish maktab uchun iqtisodiy jihatdan foydali bo'lib qolishi mumkin.

Shunda yana bir prinsipial savol tug'iladi: davlat maktabining muvaffaqiyati nimada o'lchanishi kerak: qo'shimcha daromad miqdoridami yoki har bir bolaga yaratilgan ta'lim imkoniyatida? Agar maktabning moliyaviy manfaati pullik xizmatlarni kengaytirishga, ijtimoiy vazifasi esa bolalar uchun teng imkoniyatni saqlashga undasa, bu ikki maqsad o'rtasida ziddiyat paydo bo'ladi. Eng muhimi, bunday mexanizm maktab rahbariyatini yomon niyatli deb ko'rsatish uchun emas, tizimning o'zi qanday rag'bat yaratayotganini ko'rish uchun tahlil qilinishi kerak. Muammo shaxslarda emas, shunday vaziyatni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan moliyaviy modelda qoladi. Davlat maktabida rahbariyatni ko'proq pullik xizmat ochishga emas, ko'proq bolani sifatli va bepul ta'lim bilan qamrab olishga rag'batlantiradigan tizim ustuvor bo'lishi kerak.

11. "Ixtiyoriy" degan so'z hamma muammoni hal qilmaydi.

Qaror pullik xizmatlarni ixtiyoriylik asosida tashkil etishni nazarda tutadi. Lekin hayotda majburlash faqat "sen qatnashasan" degan buyruq bilan amalga oshirilmaydi. Agar sinfning ko'pchiligi pullik mashg'ulotda qolsa, o'sha yerda ko'proq tushuntirish, ko'proq mashq va ko'proq e'tibor berilsa, ota-onada "bolam ortda qolib ketmasin" degan xavotir paydo bo'lishi tabiiy. Shunda pullik xizmat huquqiy jihatdan ixtiyoriy bo'lib qolsa-da, amalda psixologik va ijtimoiy zaruratga aylanishi mumkin. Yana bir xavfni ham inkor etib bo'lmaydi. Tizim maktab yoki pedagogni pullik guruhga ko'proq bola jalb qilishdan manfaatdor qilib qo'ysa, qo'shimcha mashg'ulotning samarasini sun'iy ravishda yuqori ko'rsatish, unga qatnashmayotgan bolaga kamroq e'tibor berish kabi nomaqbul holatlar uchun zamin paydo bo'lishi mumkin. Haqiqiy ixtiyoriylikning mezonini juda oddiy: pullik mashg'ulotga qatnashmagan bola asosiy ta'lim sifati, o'qituvchi e'tibori va zarur pedagogik yordamdan hech narsa yo'qotmasligi kerak.

12. Davlat maktabida ta'lim tovar emas.

Xususiy maktabning tabiati boshqa. Ota-ona ma'lum xizmat uchun pul to'lashini oldindan biladi va tanlov qiladi. Davlat maktabi esa boshqa ijtimoiy prinsipga qurilgan. U bolaning oilaviy daromadidan qat'i nazar, ta'lim olish imkoniyatini ta'minlashi kerak. Shuning uchun davlat maktabi ichiga "ko'proq to'lasang – ko'proq ta'lim imkoniyati olasan" degan bozor mantig'i kirib kelsa, uning ijtimoiy mohiyati bilan ziddiyat paydo bo'ladi. Maktabda ovqatlanish, transport yoki boshqa maishiy xizmat uchun haq to'lash bilan pedagogik e'tibor uchun haq to'lash bir xil narsa emas. Biri maishiy xizmat. Ikkinchisi esa ta'limning o'zagiga daxl qiladi. Davlat maktabida ta'lim tovar emas, ijtimoiy kafolatdir.

13. 343-qarorni qayta ko'rib chiqish vaqti kelmadimi?

Shu nuqtaga kelganda "qaror yaxshi, faqat ayrim joylarda noto'g'ri qo'llanyapti" degan xulosa yetarli emasdek ko'rinadi. Chunki amaldagi mexanizmning o'zi maktabdagi ayrim pedagogik faoliyatlarni pullik xizmat sifatida tashkil etishga huquqiy imkoniyat yaratadi. Demak, bugun paydo bo'layotgan "pullik sinflar"ni faqat ayrim maktablarning tashabbusi deb qarash to'liq manzarani bermaydi.

2019-yilda bu mexanizm maktablarning moliyaviy imkoniyatini kengaytirish, pedagoglarni rag'batlantirish yoki ota-onalar talabini qondirish vositasi sifatida qa-



Umid XO'JAMQULOV,
pedagogika fanlari doktori,
professor

ralgan bo'lishi mumkin. Ammo har qanday qaror vaqt o'tishi bilan uning real ijtimoiy oqibatlarini asosida ham baholanishi kerak. Bugun savolni boshqacha qo'yish vaqti kelmadimi: davlat maktabining pedagogik resursi qay darajada tijoriy xizmat predmeti bo'lishi mumkin? Davlat maktabining vazifasi daromad topishmi yoki har bir bolaga maksimal ta'lim imkoniyatini berish?

Agar bu ikki maqsad bir-biri bilan to'qnashsa, ustuvorlik shubhasiz bolaning ta'lim manfaatiga berilishi kerak.

14. Nima qilish kerak?

Birinchidan, 343-qarorni zamonaviy ijtimoiy-pedagogik nuqtayi nazardan qayta ekspertizadan o'tkazish zarur. Uning faqat moliyaviy samarasi emas, bolalar o'rtasidagi tenglik, maktab muhiti, asosiy dars sifati va pedagogning kasbiy pozitsiyasiga ta'siri ham baholanishi kerak.

Ikkinchidan, davlat maktabidagi pedagogik faoliyatni pullik va bepul qismlarga ajratish mezonlarini qayta ko'rib chiqish lozim. Fanni o'zlashtirishga yordam berish, to'garak, iqtidorli bola bilan ishlash, o'zlashtirishda qiynalayotgan o'quvchini qo'llab-quvvatlash kabi faoliyatlar imkon qadar maktabning bepul ta'lim-tarbiya muhitida qolishi kerak.

Uchinchidan, shaharlarda uzaytirilgan kun guruhlariga real ehtiyoj borligini tan olish zarur. Ishlaydigan ota-ona uchun bolaning darsdan keyin xavfsiz joyda bo'lishi muhim. Ammo bunday xizmatning bolani nazorat qilish, ovqatlantirish va xavfsizligini ta'minlash qismi bilan pedagogik yordamni bir-biriga aralashtirmaslik kerak.

To'rtinchidan, bepul to'garaklar, fan klublari, konsultatsiyalar, olimpiadaga tayyorgarlik va qiynalayotgan o'quvchilar uchun qo'llab-quvvatlash soatlarini davlat tomonidan alohida moliyalashtirish mexanizmlarini kuchaytirish zarur.

Beshinchidan, maktab qancha ko'p pullik guruh ochsa, shuncha ko'p mablag' oladigan model emas, qancha ko'p bolaga sifatli ta'lim va rivojlanish imkoniyatini bepul yaratsa, shuncha ko'proq qo'llab-quvvatlanadigan model shakllanishi kerak.

Demak, davlat maktabiga eng avvalo qo'shimcha daromad manbayi emas, qo'shimcha davlat qo'llab-quvvatlovi kerak.

15. Yakun.

Davlat maktabi "bazaviy" va "premium" ta'limga bo'linmasin. Aslida bu bahsning markazida pul emas. Masala davlat maktabining qanday institut bo'lib qolishida. Maktabda "bepul paket" va "pullik paket" paydo bo'lmisligi kerak. "Hamma uchun oddiy e'tibor" va "pul to'laganlar uchun ko'proq e'tibor" degan chegara shakllanmasligi kerak. Chunki bola qaysi oilada tug'ilishini tanlamaydi. Uning ota-onasi ko'proq yoki kamroq daromad topishi bolaning qancha ta'lim imkoniyatiga munosib ekanini belgilamasligi kerak. Shuning uchun 343-qarorga endi faqat "Qanday ijro etilyapti?" degan nuqtayi nazardan emas, "Davlat maktabida pullik pedagogik xizmatning o'zi biz qurmoqchi bo'lgan adolatli ta'lim tizimiga qanchalik mos?" degan nuqtayi nazardan ham qarash vaqti keldi.

Davlat maktabi eshigidan kirgan har bir bola uchun eng yaxshi ta'lim imkoniyati "pullik qo'shimcha" emas, uning huquqi bo'lishi kerak. Davlat maktabi pul ishlash uchun emas, bolani o'qitish uchun qurilgan.

Rektor minbari

Yangi O'zbekiston universitetlarining taraqqiyot yo'li

So'nggi yillarda Yangi O'zbekistonni barpo etish, inson qadrini yuksaltirish, ilm-fan va ta'limni rivojlantirish, yosh avlod uchun keng imkoniyatlar yaratish borasida beqiyos natijalarga erishildi. Amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar mamlakatimizning taraqqiyot sur'atini yangi bosqichga olib chiqdi.

Kuni kecha bo'lib o'tgan Mustaqilligimizning 35 yilligiga bag'ishlangan tantanali tadbirda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev mamlakat taraqqiyotining muhim ko'rsatkichlari haqida to'xtalib, oliy ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar natijasida talabalar soni 1,6 million nafarga yetganini alohida ta'kidladi. Bu raqam mamlakatimizda ta'limga bo'lgan e'tibor, yoshlarning bilim olishi uchun yaratilgan imkoniyatlar va oliy ta'lim qamrovini kengaytirish borasidagi sa'y-harakatlarning amaliy natijasi sifatida ahamiyatlidir. Mustaqillik xalqimizga o'z taqdirini mustaqil belgilash, milliy qadriyatlarimizni tiklash, davlatchilik an'analarimizni mustahkamlash hamda xalqaro hamjamiyatda munosib o'rin egallash imkonini berdi. Bugungi kunda mamlakatimizning iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy taraqqiyotida kuzatilayotgan yutuqlar ana shu tarixiy tanlovning samarasidir. Tantanali yig'ilishda Davlatimiz rahbari kelgusi o'n yillik O'zbekiston uchun milliy yuksalish davri bo'lishini qayd etib, inson qadrini yanada yuksaltirishga qaratilgan yettita milliy dastur amalga oshirilishini ma'lum qildi. Ushbu dasturlar orasida eng birinchi va ustuvor vazifa sifatida "Bilim va malakani kelgusi taraqqiyotimizning asosiy kapitaliga aylantirish" g'oyasi belgilangani barchamiz uchun alohida ahamiyat kasb etadi.

Biz ta'lim sohasi vakillari ushbu vazifani mamlakat taraqqiyotining strategik yo'nalishi sifatida qabul qilamiz. Chunki bugungi kunda davlatlar raqobati, avvalo, tabiiy resurslar yoki hududlar bilan emas, balki bilimli inson kapitali, innovatsiyalar va zamonaviy texnologiyalar orqali belgilanmoqda. Shu ma'noda, bilim va malakani milliy taraqqiyotning asosiy kapitali sifatida e'tirof etish Yangi O'zbekistonning kelajakka qaratilgan eng muhim va uzoqni ko'zlagan qarorlaridan biri hisoblanadi.

Biz ushbu tarixiy vazifalarni amalga oshirishda oliy ta'lim muassasalari zimmasiga yanada katta mas'uliyat yuklanishini chuqur anglaymiz. Zero, mustaqillikning eng katta yutug'i – bilimli, vatanparvar, raqobatbardosh va kelajak uchun mas'uliyatni his qiladigan yosh avlodni tarbiyalash imkoniyatidir. Bugungi yutuqlar va ertangi muvaffaqiyatlarimiz aynan ana shu avlodning bilimi, salohiyati va tashabbuskorligi bilan chambarchas bog'liqdir. Mamlakatimizda iqtisodiyot, sanoat, ilm-fan, madaniyat va ta'lim sohalarida kuzatilayotgan ulkan o'zgarishlar mustaqil taraqqiyot yo'lining amaliy samarasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Davlatimiz rahbarining

ta'lim sohasi vakillari bilan uchrashuvda aytgan: "Ta'lim bilan bir qatorda ilm-fan, zamonaviy texnologiya va innovatsiyalarni ham taraqqiyotimizning hal qiluvchi omili deb bilamiz" degan fikri bugun barcha davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalari uchun dasturilamal bo'lib xizmat qilishi lozim, deb hisoblaymiz. Zero, zamonaviy dunyo tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, taraqqiyotning eng muhim omili tabiiy resurslar emas, balki bilimli inson kapitali, ilmiy salohiyat va innovatsion g'oyalardir. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar mamlakatimiz davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Chunki har qanday davlatning iqtisodiy qudrati, ijtimoiy barqarorligi va xalqaro raqobatbardoshligi avvalo inson kapitali sifati bilan belgilanadi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda oliy ta'lim qamrovi bir necha barobar kengaydi, yangi davlat va nodavlat universitetlari tashkil etildi, xalqaro ta'lim dasturlari hamda qo'shma ta'lim loyihalari keng joriy etildi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, mamlakatning kelajakdagi raqobatbardoshligi yuqori bilimli, keng dunyoqarashli, zamonaviy fikrlaydigan va yuqori malakali kadrlarga bevosita bog'liq. Shu bois ta'lim tizimida davlat va nodavlat sektorlari o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirishga alohida e'tibor qaratildi. Bu esa ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirish, talabalar uchun tanlov imkoniyatlarini kengaytirish va ta'lim sifatiga bo'lgan talablarni yanada kuchaytirishga xizmat qildi. Bugun nodavlat oliy ta'lim muassasalari mamlakatimiz ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Ular nafaqat oliy ta'lim qamrovini oshirishga hissa qo'shmoqda, balki ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvlar, zamonaviy boshqaruv mexanizmlari va xalqaro tajribani joriy etish orqali sohaning sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilishiga xizmat qilmoqda. Toshkent kimyo xalqaro universiteti ham ana shunday zamonaviy oliy ta'lim muassasalaridan biri sifatida o'z faoliyatini muntazam ravishda takomillashtirib kelmoqda. Universitetda ta'lim sifatini xalqaro mezonlar asosida baholash va rivojlantirish maqsadida QS Stars xalqaro reyting tizimi talablari asosida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayon universitetning xalqaro maydondagi nufuzini mustahkamlash, ta'lim xizmatlari sifatini yanada oshirish va global akademik makonda munosib o'rin egallashga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasasi faoliyati samaradorligini baholashdagi muhim mezonlardan biri bitiruvchilarning mehnat bozoridagi muvaffaqiyati hisoblanadi. Chunki universitetning haqiqiy natijasi auditoriyada berilgan bilim bilan emas, balki uning bitiruvchilari hayotda qanday o'rin topayotgani, mehnat bozorida qanchalik talabgir mutaxassisga aylanayotgani bilan o'lchanadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, Toshkent kimyo xalqaro universitetida keyingi yillarda amaliy ko'nikmalarga asoslangan ta'lim modeli izchil rivojlantirilmoqda. Nazariy bilimlarni ishlab chiqarish, biznes va zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirishga alohida e'tibor qaratilayotgani o'zining aniq natijalarini bermiqda. Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi tomonidan ishga tushirilgan "Bitiruvchilar sifati indeksi" platformasida e'lon qilingan ma'lumotlarga ko'ra, universitetning jami 14 246 nafar bitiruvchisi tahlil qilingan bo'lib, ularning 11 700 nafari yoki 82,1 foizi ish bilan ta'minlangani qayd etilgan. Shuningdek, bitiruvchilarning o'rtacha ishga joylashish muddati 2 oy 10 kunni, o'rtacha oylik daromadi esa 5 million so'mni tashkil etgan. Ushbu raqamlar universitetda shakllantirilayotgan ta'lim muhiti va o'quv dasturlarining mehnat bozori ehtiyojlari bilan uzviy bog'liq holda rivojlanayotganini yaqqol namoyon etadi. Ayniqsa, bitiruvchilar bandlik darajasining yuqori ekani ularning faqat diplom sohibi emas, balki ish beruvchilar tomonidan talab etiladigan zamonaviy bilim, ko'nikma va kasbiy kompetensiyalarga ega mutaxassislar sifatida shakllanayotganini ko'rsatadi. Bu esa universitetning ta'lim sifatini ta'minlash borasidagi sa'y-harakatlari o'z samarasini berayotganining muhim ko'rsatkichidir.

Universitetda xalqaro hamkorlik yo'nalishida ham salmoqli natijalarga erishilmoqda. Dunyoning ko'plab mamlakatlaridagi yetakchi oliy ta'lim muassasalari bilan samarali hamkorlik qilib kelinmoqda. Erasmus+ dasturlari, akademik mobillik loyihalari, qo'shma ta'lim dasturlari hamda xalqaro muhandislik ta'limiga oid tashabbuslar talabalar va professor-o'qituvchilar uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Mamlakatimizda davlat ishtirokini qisqartirish va iqtisodiyotning turli tarmoqlariga xususiy sektorni keng jalb qilish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. So'nggi vaqtlarda ayrim davlat OTMlarini korporativ boshqaruv tamoyillari asosida transformatsiya qilish, ularning mustaqilligini kengaytirish va xususiy sektor tajribasini joriy etish bo'yicha rasmiy muhokamalar ham paydo bo'lmoqda. Bizningcha, bu jarayon ta'lim tizimi taraqqiyotining navbatdagi mantiqiy bosqichidir. Chunki bugun universitetlar faqat davlat mab-



Akmal ALLAKULIYEV,
Toshkent kimyo xalqaro
universiteti rektori

lag'i hisobiga faoliyat yurituvchi muassasa emas, balki bilim, innovatsiya va inson kapitalini yaratuvchi zamonaviy ekotizimga aylanishi kerak. Jahon tajribasiga nazar tashlasak, dunyoning eng nufuzli universitetlarining katta qismi aynan yuqori darajadagi akademik va moliyaviy mustaqillikka ega. Masalan, Garvard, Stenford, MIT kabi universitetlar davlat muassasasi emas. Biroq ular nafaqat o'z mamlakatlari, balki butun dunyo ilm-fani va iqtisodiyoti taraqqiyotiga katta hissa qo'shib kelmoqda. Buyuk Britaniyaning Oksford va Kembrij universitetlari ham davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishiga qaramasdan, mustaqil boshqaruv va yuqori akademik erkinlik asosida rivojlangan. Binobarin, universitet rivojlanishining asosiy sharti uning kimga qarashli ekani emas, balki qanchalik erkin fikrlay olishi, o'zgarishlarga tez moslasha olishi va jamiyat uchun qanday qiymat yarata olishi bilan belgilanadi. Har bir universitet jamiyatda o'zining noyob qiymatini yarata olishi kerak. Aks holda raqobat muhitida o'z o'rnini saqlab qolishi qiyin bo'ladi. Agar kelajakda ayrim davlat universitetlari korporativ boshqaruv yoki xususiy sektor ishtirokidagi modellarga o'tsa, bu bir qator ijobiy natijalarni berishi mumkin. Avvalo, raqobat kuchayadi. Raqobat esa ta'lim sifati oshishiga xizmat qiladi. Ikkinchidan, mehnat bozori talablariga tezroq moslashadigan ta'lim dasturlari shakllanadi. Uchinchidan, ilmiy tadqiqotlarga investitsiyalar ko'payib, universitetlarning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligi ortadi. Eng muhimi, bunday o'zgarishlarning markazida talaba manfaatli turishi kerak. Universitetning haqiqiy bahosi uning binolari yoki maqomi bilan emas, balki bitiruvchilarining jamiyatda qanchalik muvaffaqiyat qozonayotgani bilan o'lchanadi.

Bugun Toshkent kimyo xalqaro universiteti bitiruvchilarining bandlik darajasi 82,1 foizni tashkil etayotgani ham aynan ta'limni mehnat bozori ehtiyojlari bilan uyg'unlashtirish natijasidir. Shu bois davlat va nodavlat universitetlari o'rtasidagi sog'lom raqobatni mamlakatimiz oliy ta'lim tizimining kelgusi taraqqiyoti uchun muhim omil deb bilaman. Bu raqobatning g'olibi esa, shubhasiz, bilimli yoshlar va butun jamiyat bo'ladi.

Salomatlik saboqlari

Erta tashxis – baxtli kelajak garovi



Eshitish – bolaning dunyoni anglash va nutqini o‘stirishdagi eng birinchi asosdir. Afsuski, ko‘pincha ota-onalar bolaning eshitmasligini kech – u gapirishi kerak bo‘lgan yoshga yetganda payqashadi. Vaholanki, bu borada har bir yo‘qotilgan oy bolaning rivojlanishiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. Nega erta aniqlash muhim?

BOLA ESHITYAPTIMI?

Bunday savollar darhol eshitish qobiliyati zaif bo‘lgan oilalarda yoki chaqaloq eshitish nerviga salbiy ta‘sir ko‘rsatadigan antibiotiklar qo‘llanilgan og‘ir kasallikni boshdan kechirgan holatlarda paydo bo‘ladi (bu haqida odatda shifokorlar ogohlantiradi). Ko‘pincha yosh ota-onalar bolaning qanday ovqatlanishi, uxlashi, boshini tutib, tura boshlagani, o‘tirishi, turishini kuzatib boradilar. E‘tiborli onani 5-6 oyligida bolaning shaqildoqqa munosabat bildirmasligi, chaqirganda boshini burmasligi, eshik qo‘ng‘irog‘i yoki telefon jiringlaganda uyg‘onmasligi xavotirga soladi. Aksariyat hollarda esa ota-onalar farzandining nutqi rivojlanishdan ortda qola boshlaganda sergak torta boshlaydi. Bu odatda bir yoshdan bir yarim yoshgacha sodir bo‘ladi. Bu yoshda eshituvchi bolalarda birinchi so‘zlar paydo bo‘ladi, ya‘ni bola sevimli o‘yinchoqlari, yaqinlarini qandaydir tovushlar bilan ifodalaydi, iltimosini bildiradi. Bu ovoqli reaksiyalar ular mos keladigan so‘zlarga (ona, buvi, voy-bo‘) o‘xshash bo‘lishi yoki keskin farq qilishi mumkin.

BOLANING ESHITISHIGA QACHONDAN E‘TIBOR BERISH KERAK?

Birinchi haftalardan boshlab! Bu bola bilan tuzatish ishlarini o‘z vaqtida boshlash uchun juda muhimdir. Bu jarayon qanchalik erta boshlansa, eshitish qobiliyatiga ega tengdoshlaridan rivojlanishda ortda qolish xavfi shunchalik kamayadi. Bu borada nimalarga e‘tibor berish kerak? Yangi tug‘ilgan chaqaloqning tovushga kattalar yoki hatto 4-5 oylik bola kabi munosabatda bo‘lishini kutish befoyda, ya‘ni u boshini tovush tomon burmaydi. Ovozlariga munosabat bildirish mexanizmi asta-sekin shakllanadi va har bir yosh uchun o‘ziga xosdir. Homilaning ona qornidayoq tovushlarga javob berishi kuzatiladi. Bu tashqi tovush signallariga javoban homila yurak urishi chastotasining o‘zgarishini qayd etuvchi maxsus asboblarda yordamida aniqlanadi.

Hayotning dastlabki soatlari va kunlarida maxsus tekshiruvlar bolaning eshitish qobiliyatini aniqlash imkonini beradi. Afsuski, bugungi kunda bunday tekshiruvlar keng tarqalmagan va asosan tadqiqot, tajriba xarakteriga ega. Chaqaloqning tovushlarga hech qanday asbob-uskunalarsiz ko‘rinadigan reaksiyalarini hayotining ikkinchi-uchinchi haftasidan boshlab, bolada eshitish qobiliyati paydo bo‘lganda kuzatish

mumkin. Eshitish diqqatini jamlash – bu bolaning tashqi tovush ta‘siriga bo‘lgan reaksiyasi bo‘lib, u to‘liq yoki qisman ifodalanadi. Agar chaqaloqqa yig‘layotganda yaqin masofada, uzoq vaqt davomida, ancha baland ovozda signal berilsa, reaksiya yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bunday holatda bir necha soniyadan so‘ng (ba‘zan 15–20 soniyadan keyin) bolaning asta-sekin qotib qolishi, harakatdan to‘xtashi va jim turishini kuzatish mumkin, ba‘zida signal eshitilayotgan vaqt davomida shunday bo‘ladi. Bunday tormozlanish to‘satdan eshitilgan tovushga, keyinroq esa ovozga nisbatan yuzaga keladi.

Kichkintoyning tabassumi ota-onalarga ulkan quvonch bag‘ishlaydi. U, odatda, hayotining ikkinchi oyining birinchi haftasida, bola atrofga qaraganida paydo bo‘ladi. Biroz vaqt o‘tgach, taxminan 2 oy yoki 2 haftalik bo‘lganida, bola bilan uzoq vaqt “suhbatlashish” yoki uning yuzi ustida cho‘zib, past ovozda tovushlar chiqarish natijasida yuzaga keladigan birinchi xotirjam ovoqli reaksiyalar kuzatiladi. Bola go‘yo kattalar bilan gaplashayotgandek bo‘ladi. Bu maftunkor tabassum va chaqaloqning ovoqli muloqotga qo‘shilishi ko‘pincha ota-onalarni chalg‘itadi, chunki ular bolaning unga qaratilgan, eshitiladigan tovushlarga javoban jilmayib, eshitayotganiga ishonishadi. Ammo amaliyot shuni ko‘rsatadiki, bunday reaksiyalar ko‘pincha eshitmaydigan bolalarda ham kuzatiladi. Ular bolaning yuziga qaratilgan ko‘rinishdan kelib chiqadi.

Nihoyat, 3-oyga kelib (kamdan-kam hollarda 3,5-4 oyda chala tug‘ilgan va zaiflashgan bolalarda) eshituvchi chaqaloqlarda tovushga javob paydo bo‘ladi, bu ko‘zlarni, so‘ng esa boshni tovush kelayotgan tomon burishda ifodalanadi. Tadqiqotchilar ta‘kidlashlaricha, bu reaksiya birinchi marta inson ovozigacha nisbatan paydo bo‘ladi. Bola boshqa tovushlarga nisbatan biroz keyinroq reaksiya bildiradi boshlaydi. Reaksiya namoyon bo‘lish tezligida katta individual farqlar mavjud. Ba‘zi bolalar tovush eshitilayotganda darhol boshini buradi, boshqalari esa tovush eshitilgandan keyin boshlaydi. Ayrim bolalarda reaksiya 0,5 daqiqadan so‘ng paydo bo‘ladi.

Chaqaloqlar dastlab tovush yo‘naltirishini yon tomondan – o‘ng yoki chapdan, keyinchalik esa orqa tomondan aniqlaydilar. Shuni ta‘kidlash kerakki, juda kichik yoshdagi bola 3 metrda uzoq bo‘lmagan masofadagi tovushga boshini buradi, faqat yarim yoshdan kattalar bolalar 5-6 metrgacha bo‘lgan masofadagi tovushlarga e‘tibor beradi. 3 oy-

dan 6 oygacha bo‘lgan davrda ko‘pchilik bolalarda keskin yoki notanish tovushlarga salbiy reaksiya (yig‘lash) paydo bo‘ladi. Bunda chaqaloq butun badanini silkitadi, ko‘zlarini katta-katta ochadi va butunlay harakatsiz qoladi (to‘liq harakat tormozlanishi), so‘ngra yuzini burishtiradi, qizaradi va ba‘zida birdaniga, ba‘zida 10–15 soniyadan so‘ng baqirga boshlaydi. Bu reaksiya o‘zgaruvchan bo‘lib, bolaning holatiga, asosan, uning individual xususiyatlariga bog‘liq.

Shunday qilib, bolani diqqat bilan kuzatib, eshitish funksiyasining normal rivojlanishidan chetga chiqishlarni ancha erta aniqlash mumkin.

QAYSI MUTAXASSISLAR KO‘RIGI LOZIM?

Agar bola to‘satdan chiqqan tovushlarga munosabat bildirmasa, o‘z vaqtida boshini tovush manbayi tomon burishni boshlamasa, o‘zingizni ovutmasligingiz kerak. Yaqin kishisi bilan muloqotda yoqimli tabassum qilishi, u bilan “suhbat”ga javoban xirgoyi qilishi bilan ajralib turadi. Xavotirli alomatlar paydo bo‘lganda, ota-onalar yashash joyidagi surdologiya bo‘limlarining surdolog yoki ixtisoslashtirilgan ilmiy markazlarga murojaat qilishlari kerak. Mutaxassislar chaqaloqning eshitish funksiyasi holatini tabaqalashtirilgan diagnostika qilishadi, zarur davolanishni tayinlaydi, zarur hollarda individual eshitish moslamalarini buyuradi, o‘qituvchi-defektologlar chaqaloq bilan reabilitatsiya mashg‘ulotlari metodikasi bilan tanishtiradi. Eshitish funksiyasi holati to‘g‘risida tashxis qo‘yish va tuzatish ishlarini belgilash uchun yetarli bo‘lgan eng to‘liq ma‘lumotlarni olish uchun kompleks tibbiy-psixologik-pedagogik tekshiruv o‘tkazish zarur.

Tibbiy ko‘rik otatriya ko‘rigini (otorinolarolog shifokor ko‘rigi) va audiologik tekshiruvni o‘z ichiga oladi. Agar otatriya ko‘rigi, odatda, hech qanday qiyinchilik tug‘dirmasa, erta yoshdagi bolalarning audiologik tekshiruvi ularning yosh xususiyatlari tufayli katta qiyinchiliklar bilan bog‘liq bo‘ladi. Kattaroq bolalar uchun qo‘llaniladigan usullar yordamida chaqaloqning eshitish qobiliyatini tekshirish mumkin emas.

ESHITISH QOBILIYATINI O‘RGANISHNING PEDAGOGIK USULLARI

Eshitish funksiyasini o‘rganishning obyektiv va bolaning yoshi hamda holatiga bog‘liq bo‘lmagan usullari bilan bir qatorda, eshitish qobiliyatini o‘rganishning pedagogik usullari ham qo‘llaniladi. Tekshiruv davomida bolaning turli xil tovushlarga bo‘lgan subyektiv, xulq-atvor reaksiyalari o‘rganiladi. Obyektiv va subyektiv tekshiruvlar ma‘lumotlari bir-biri bilan solishtiriladi va faqat ular mos kelsagi-



Dildora ABDUXOLLIQOVA,
Olmaliq shahridagi
11-ko‘p tarmoqli
maktab-internat korreksion
fan o‘qituvchisi

na, chaqaloqning eshitish holati to‘g‘ri baholanganiga ishonch hosil qilish mumkin. Bundan tashqari, pedagogik tekshiruv ma‘lumotlari eshitish uchun qulay bo‘lgan tovush stimuliga nisbatan xulq-atvor reaksiyalarini baholash imkonini beradi. Ovozga bo‘lgan reaksiyalarning boshqa individual xususiyatlari ham aniqlanadi.

Bola miyasi dastlabki yillarda nihoyatda moslashuvchan bo‘ladi. Eshitish muammosi qancha erta aniqlansa, oqibatlari shuncha kam bo‘ladi.

Vaqtan unumli foydalanish: dastlabki 1–2 yoshda qo‘yilgan to‘g‘ri apparat yoki koxlear implantatsiya bolaning o‘z tengdoshlaridan ortda qolmay o‘sishini ta‘minlaydi.

Nutqning shakllanishi: eshitmagan bola gapirishni ham o‘rganolmaydi. Erta aralashuv esa bolaga ravon nutq bag‘ishlaydi.

Ruhiy va ijtimoiy barkamollik: o‘z vaqtida ko‘rsatilgan yordam bolani jamiyatdan uzilib qolishdan asraydi.

OTA-ONALAR NIMAGA E‘TIBOR BERISHI KERAK?

- 3 oylikkacha: kutilmagan o‘tkir tovushdan cho‘chimaslik yoki uyg‘onmaslik.

- 4–8 oylik: tovush kelayotgan tomonga qaramaslik, ota-onasining ovozigacha munosabat bildirmaslik.

- 9–12 oylik: oddiy so‘zlarga (“kel”, “yo‘q”) munosabat bildirmaslik va g‘uldirashning to‘xtab qolishi.

Unutmang: bola eshitmayotgandek tuyulsa, “kutasiz, hali yosh” degan qarashlarga tayanmang. Darhol audiolog shifokorga murojaat qiling va surdologik tekshiruvdan o‘ting. Vaqtida boshlangan davolash hamda maxsus surdopedagogik mashg‘ulotlar farzandingizga to‘laqonli va baxtli hayot eshiklarini ochadi. Bugungi e‘tiboringiz – ertangi komil shaxs poydevoridir!

Mening tajribam

Matematika darslarida EGMA baholash dasturi

(Boshlang'ich sinflar uchun)

Boshlang'ich sinflarda matematika darslarini EGMA asosida tashkil etish o'quvchilarning bilim darajasini erta aniqlash, individual yondashuvni ta'minlash hamda ta'lim jarayonini differensiallashtirish imkonini yaratadi. Bu yondashuv o'qituvchi o'quvchilarning kuchli va zaif tomonlarini aniqlashi, dars mazmunini moslashtirishi va maqsadli korreksion ishlarni amalga oshirishiga yordam beradi. Natijada ta'lim sifati oshadi, o'quvchilarda matematik kompetensiyalar barqaror shakllanadi.

EGMA (Early Grade Mathematics Assessment) – bu boshlang'ich sinflarda matematika ko'nikmalarini baholashga mo'ljallangan xalqaro standart dastur bo'lib, uning asosiy maqsadi o'quvchilarning asosiy matematik ko'nikmalarini tizimli ravishda aniqlash va rivojlantirishdan iborat. Dastur nafaqat o'quvchilarning hozirgi bilim darajasini aniqlash, balki o'qituvchilarga darslarni rejalashtirish va individual yondashuvni qo'llash imkonini ham beradi.

Mavzu doirasida interaktiv metodlar


“Sonlarni top” metodi



“Sonlarni top” metodi – bu boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning raqamlar bilan ishlash ko'nikmalarini mustahkamlash, matematik tafakkur va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan amaliy metoddir.

Metod o'quvchilarga berilgan shartlarga asoslanib, yo'qolgan sonni yoki to'liq raqamlar ketma-ketligini aniqlashni o'rgatadi.

Topshiriq: Noma'lum sonlarni toping.



“Individual ishlash” metodi



Individual ishlash metodi – bu boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning shaxsiy qobiliyatlari, bilim darajasi va o'rganish tezligiga moslashtirilgan matematik mashg'ulotlarni tashkil etish usulidir.

Metod o'quvchilarga mustaqil fikrlash, masalalarni tahlil qilish va yechim topish imkonini beradi hamda darslarni EGMA dasturi orqali baholashga moslashtirishni osonlashtiradi.



Topshiriq: O'zingizni tekshiring! Juftliklarni toping.



“Tangram” metodi



“Tangram metodi” – bu boshlang'ich sinflarda geometrik shakllar bilan amaliy mashqlar, mantiqiy tafakkur va fazoviy tasavvurni rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik metoddir.

Metod o'quvchilarga 7 ta asosiy shakl (5 ta uchburchak, 1 ta kvadrat, 1 ta parallelogramm) yordamida turli figuralar yasashni o'rgatadi va shu orqali ijodiy fikrlash va matematik ko'nikmalarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Topshiriq: Mushuk va tulki shaklini qanday yig'ishni ko'rsating. Bo'laklarni kerakli ranglarga bo'yang.



“Test savollari” metodi



“Test savollari” metodi – bu boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning matematik bilim va ko'nikmalarini tez, tizimli va obyektiv tarzda baholashga mo'ljallangan pedagogik metoddir.


Metod o'quvchilarning asosiy arifmetik amallarni

egallash darajasi, matnli masalalarni tushunish va yechish ko'nikmalari, sonlar va geometrik shakllar bilan ishlash qobiliyatini baholash imkonini beradi.

Topshiriq: O'zingizni tekshiring!

1. Qo'shish bilan...
 - a) taqqoslashga doir
 - b) qismni topishga doir
 - d) butunni topishga doir masalalar yechiladi.
2. Ayirish komponenti:
 - a) yig'indi
 - b) kamayuvchi
 - d) qo'shiluvchi
3. Hajmni o'lchash birligi:
 - a) litr
 - b) kilogramm
 - d) santimetr
4. $x + 5 = 20$ tenglamaning yechimi:
 - a) $x = 20 + 5$
 - b) $x = 20 - 5$
 - d) $20 = x - 55$
5. $x - 5 = 10$ tenglamada x qanday amal bilan topiladi?
 - a) qo'shish
 - b) ayirish
 - d) taqqoslash


“Shifrlangan sonlar” metodi



“Shifrlangan sonlar” metodi – bu o'quvchilar arifmetik amallarni bajarib, natijalarni harflarga moslashtirish orqali yashirin so'zni topadigan interaktiv o'qitish usulidir. Metod o'yin elementiga asoslangan bo'lib, darsni qiziqarli va samarali tashkil etishga yordam beradi.

Bunda past o'zlashtiruvchi o'quvchilar ham o'yin elementi sabab darsda faol qatnashishadi.

Topshiriq: Ko'zachalar ortida yashiringan sonlarni toping. Jadvaldan har bir songa harf tanlang. Qanday so'z hosil bo'ldi?



“Xossaga ko'ra farqlash” metodi

Ushbu metodda o'quvchilar geometrik shakllarni ularning belgi va xossalari(tomonlar soni, burchaklari, rangi, o'lchami, yopiq yoki ochiq shakl ekani va h.k.) ko'ra taqqoslab, tasniflaydi. Har bir ustunda shakllar berilgan xususiyatga ko'ra bir-biridan farq qilishi shart. Bu metod mantiqiy fikrlash va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

“Xossaga ko'ra farqlash” metodi boshlang'ich sinflarda geometriya elementlarini o'qitishda samarali bo'lib, o'quvchilarning tahliliy va mantiqiy tafakkurini rivojlantiradi hamda ularni mustaqil qaror qabul qilishga o'rgatadi.

Topshiriq: Jadvalda geometrik shakllarni shunday tasvirlangki, har bir ustundagi shakllar ko'rsatilgan xossalari ko'ra bir-biridan farq qilsin.

Shakli	O'lchami	Rangi	Miqdori

Gulnora SOHIBOVA,
Kitob tumanidagi
50-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Muammo va yechim

DARS TAQSIMOTI MASHMASHASI: QONUNYI YECHIM BOR!



Har yili ayni avgust va sentabr oylari maktablarda dars boshlanadigan emas, ayrim o'qituvchilar uchun "dars soati uchun kurash" boshlanadigan davrga aylanib qolgani hech kimga sir emas. Kimdir o'ziga tegishli yuklamani olish uchun rahbariyat eshigini qoqadi, kimdir esa yillar davomida olgan soatlari nega kamayganini tushuntirishni so'raydi. Eng achinarlisi, dars taqsimoti kasbiy mezon va belgilangan tartib asosida emas, rahbarning shaxsiy munosabati, "qosh-qovog'i"ga yoki tanish-bilishchilikka, hatto korrupsion holatlarga bog'liq bo'lib qolayotgan vaziyatlar ham uchrab turadi. Bunday vaziyatda savol oddiy: **maktabda dars soati kimning xohishiga ko'ra taqsimlanadi – direktorningmi yoki qarorning?!**

Aslida esa dars soati – rahbarning xohishiga ko'ra beriladigan "ulush" emas. Uning taqsimotida aniq huquqiy mezonlar, tartib va javobgarlik masalalari mavjud. Demak, o'qituvchining "menga nega bu soat berilmadi?" degan savoliga "direktor shunday qaror qildi" degan javobning o'zi yetarli emas.

O'zbekiston Respublikasining Maktabgacha va maktab ta'limi, Iqtisodiyot va moliya, Sog'liqni saqlash vazirliklarining 3271-raqami bilan davlat ro'yxatidan o'tgan qo'shma qarori "dars taqsimoti" masalasini tartibga soladi. Mazkur qarorning 15-bandiga asosan dars taqsimoti quyidagi ketma-ketlikda bo'linishi belgilab qo'yilgan:

Umumta'lim muassasalari tomonidan shakllantirilgan dars soatlari setkasi umumta'lim muassasasining pedagogik kengashi tomonidan ikki ish kuni ichida ko'rib chiqilib, har yili 15-sentabrga qadar o'qituvchilarga dars soatlari quyidagi ko'rsatkichlarning ustuvor ketma-ketligi asosida taqsimlanadi:

1. Oliy malaka toifasiga ega o'qituvchilar (*pedagog kadrning attestatsiyadan o'tganligi to'g'risidagi sertifikatning amal qilish muddatiga ko'ra*).
2. Dars beradigan fanidan pedagog xodimlarga ustama belgilashda qo'llaniladigan milliy yoki xalqaro tan olingan sertifikatga ega o'qituvchilar (*sertifikatning belgilangan darajasi va amal qilish muddatiga ko'ra*).
3. Birinchi malaka toifasiga ega o'qituvchilar (*pedagog kadrning attestatsiyadan o'tganligi to'g'risidagi sertifikatning amal qilish muddatiga ko'ra*).
4. Ikkinchi malaka toifasiga ega o'qituvchilar (*pedagog kadrning attestatsiyadan o'tganligi to'g'risidagi sertifikatning amal qilish muddatiga ko'ra*).
5. Oliy ma'lumotli toifasiz o'qituvchilar.
6. Qayta tayyorlash bo'yicha diplomga ega o'qituvchilar (*o'qituvchida qayta tayyorlash mutaxassisligi bo'yicha mazkur bandning ikkinchi – oltinchi xatboshilarida nazarda tutilgan ko'rsatkichlardan biri yoki bir nechitasi*).

mavjud bo'lganda taalluqliligiga ko'ra tegishli ko'rsatkichlar mavjud bo'lgan o'qituvchilar bilan teng ustuvorlikka ega bo'ladi).

7. O'rindoshlik asosida ishlayotgan oliy ma'lumotli o'qituvchilar.

8. Oliy ta'lim muassasalarining pedagogika yo'nalishi bo'yicha uchinchi va undan yuqori kurs talabalari.

9. Oliy ma'lumotli o'qituvchilar bilan ta'minlanguniga qadar o'rta maxsus, professional ma'lumotga ega o'qituvchilar (*faqat boshlang'ich sinflarda dars beruvchi o'qituvchilar uchun*).

10. Oliy ma'lumotli o'qituvchilar bilan ta'minlanguniga qadar umumta'lim muassasasining tegishli mutaxassisligi bo'yicha rahbar xodimlari.

Shuningdek, boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan fanlar bo'yicha dars soatlarini taqsimlashda o'qituvchilarning boshlang'ich ta'lim mutaxassisligiga egaligi yoki tegishli ushbu fanni boshlang'ich sinflarda o'qitish metodikasi bo'yicha ta'lim olganligi inobatga olinadi.

Qolaversa, qarorga ko'ra, zarurat tug'ilsa, umumta'lim muassasasining pedagogik kengashi tomonidan dars soatlari qayta taqsimlanishi mumkin ekanligi ko'rsatilgan.

Shunday ekan, hurmatli direktorlar! Dars taqsimotida faqatgina belgilangan tartibga amal qiling, chunki bu ta'lim sifati uchun muhim, ta'lim sifati esa KELAJAK AVLODga daxldor masaladir.

Jasurbek NABIJONOV,
Davlat mehnat inspeksiyasi inspektori

Oliy ta'lim

SAFARLAR SAMARALI O'TDI



Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti "Gidrogeologiya, muhandislik geologiyasi va petrografiya" kafedrasini professor-o'qituvchilaridan iborat delegatsiya Xitoy Xalq Respublikasi va Qirg'iz Respublikasida xizmat safarida bo'lib qaytdi. Safarimiz yo'nalishi quyidagicha bo'ldi: **Toshkent → Urumchi → Kashi (Qoshg'ar) → Issiqko'l → Bishkek → Toshkent.**

Asosiy maqsadimiz – ToshDTUning Xitoy va Markaziy Osiyo ilmiy muassasalari bilan hamkorligini kengaytirish, qo'shma ilmiy loyihalar va akademik almashinuv mexanizmlarini shakllantirish, zamonaviy aerokosmik axborot, masofadan zondlash va sun'iy intellekt texnologiyalari bilan tanishish, shuningdek, ToshDTUda olib borilayotgan tadqiqotlarni DBAR va ISEO xalqaro ilmiy maydonida taqdim etishdan iborat edi.

Safarimiz Xitoyning Shinjon-Uyg'ur muxtor rayonidagi qadimiy Ipak yo'li shahri – Kashi(Qoshg'ar)da boshlandi. 14-avgust kuni XVI Shinjon-Kashi – Markaziy va Janubiy Osiyo tovar yarmarkasida qatnashdik va bu yerda O'zbekiston milliy pavilonini ko'rib juda xursand bo'ldik. Ko'rgazma yuqori saviyada tashkil etilganligi bilan yig'ilganlarda katta taassurot qoldirdi.

15-avgust kuni Kashi qardosh shaharlari o'rtasida hamkorlik va rivojlanish konferensiyasi doirasida ToshDTU bilan Kashi Aerokos-

mik axborot ilmiy-tadqiqot instituti o'rtasida "Belt and Road" fan, texnologiya va innovatsiyalar sohasidagi strategik hamkorlik rasmiy kelishuvi tantanali ravishda imzolandi. Kelishuvda ko'zda tutilgan masalalar: transchegaraviy suv resurslarining ekologik muhofazasi va yashil energiya kabi Markaziy Osiyo mintaqasi uchun hayotiy ahamiyatga ega masalalar bo'yicha qo'shma tadqiqotlar o'tkazish ko'zda tutildi. Kelishuvning muhim jihati – tomonlar "Katta Aerokosmik ma'lumotlarni qo'llash texnologiyalari markazi"ni

tashkil etish tashabbusini ilgari surishi bo'ldi. Bu markaz kelajakda masofadan zondlash, sun'iy intellekt va aerokosmik axborot texnologiyalari sohasida kadrlar tayyorlash va shu bilan birga ilmiy tadqiqotlar uchun asosiy platformaga aylanishi mumkin.

16-avgust kuni Kashi Aerokosmik axborot ilmiy-tadqiqot institutida professor **Ding Haifeng** O'zbekiston, Qirg'iziston va Tojikistondan tashrif buyurgan olimlar uchun Janubiy Shinjon va Markaziy Osiyo metallogenik mintaqalari sharoitiga moslashtirilgan "**Congling Zhixun**" sun'iy intellekt asosidagi mineral qidiruv modeli bilan tanishtirdi. Bir so'z bilan aytganda, Xitoyga qilgan safarimiz juda qiziqarli va samarali bo'ldi.

Shundan so'ng 17-avgust kuni Qirg'izistonning Issiqko'l viloyatiga yo'l oldik. Cho'lpon-Otada 18–20-avgust kunlari o'tkazilgan xalqaro konferensiya (10th Digital Belt and Road Conference, DBAR 2026) va qurg'oqchil hamda yarim qurg'oqchil muhitlarni masofadan kuzatish bo'yicha VI xalqaro (6th international Sumposium on Earth Observation for Arid and Semi-Arid Environments, ISEO 2026) simpoziumga 20 mamlakatdan qariyb 110 nafar olim 84 ta ilmiy ma'ruzalari bilan qatnashdi.



Tadbirning asosiy mavzusi "**Advanced Earth Observation Technologies to Facilitate Belt and Road Sustainable Development**" bo'lib, Yerni kuzatishning ilg'or texnologiyalari, Big Earth Data, sun'iy intellekt, qurg'oqchil va yarim qurg'oqchil hududlar ekologiyasi, raqamli infratuzilma hamda BMT Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish masalalarini qamrab oldi.

Biz ham bu katta minbardan unumli foydalandik. Professor Mirabbos Zokirov "**Orol dengizining ochilib qolgan tubida gaz qazib olishning muhandislik-geologik sharoitlari va ehtimoliy indutsirlangan seysmiklik**" mavzusida, dotsent Dilshod Begimqulov "**Mirzacho'l hududini muhandislik-geoeologik baholash uchun ikkilamchi sho'rlanishni xaritalash**" nomli ma'ruzalari bilan qatnashdi. Kafedra mudiri G'olibjon Ochilov esa "**Janubiy Orolbo'yida cho'llanish jarayonlarini muhandislik-geoeologik baholash**" mavzusida ilmiy ma'ruza qildi.

Anjuman tashkilotchilari tomonidan ilmiy ma'ruzalarimiz hamda faolligimiz yuqori baholandi. Universitetimizning ilmiy salohiyati va tajribalari inobatga olinib, navbatdagi "Qurg'oqchil va yarim qurg'oqchil hududlarda yerni kuzatish bo'yicha 17-xalqaro simpoziumi(ISO 2028)"ni **2028-yili Toshkent davlat texnika universitetida** o'tkazish bir ovozdan ma'qullandi.

Xalqaro nufuzga ega bo'lgan Simpozium estafetasini qabul qilib olish mas'uliyati tantanali ravishda universitetga topshirildi. Bu bizga bildirilgan yuksak ishonch ramzidir.

Inobat A'ZAMOVA,
Mirabbos ZOKIROV,
ToshDTU "Gidrogeologiya, muhandislik geologiyasi va petrografiya" kafedrasini professorlari

Dolzarb mavzu

O'ZBEKISTONDA TIL SIYOSATI:



Mabodo “Do’stik” metrosidan “Aviasozlar” dehqon bozoriga qarab yuradigan 15, 22, 54, 72-avtobuslarning “Alimkent” mahallasi bekatiga tushadigan bo‘lsangiz, mo‘jazzina “Richmond school” o‘quv markazi binosiga ko‘zingiz tushadi. “School” so‘zi “maktab”, buni bilamiz. Ammo “Richmond” degan ajnabiy so‘zning lug‘aviy ma‘nosi ne erur? O‘yga botasan, kishi. Ikki bekat narida esa chiroyli o‘zbekcha nom qo‘yilgan “Savod” o‘quv markazi bor. Beixtiyor bo‘larkan-u o‘zbekcha nom qo‘ysa ham deb yuborasiz...

INGLIZCHA ATAMA TOSHKENTDA

Ha, savollar odamni qiynaydi. Nima uchun o‘z ona tilimiz bo‘laturib, boshqa bir millatning lisoniga sig‘inamiz? To‘g‘ri, ingliz tili xalqaro miqyosda tan olingan, ammo uning ana shu maqomi saqlanadigan o‘rin va doiralari bor. O‘zbekistonda yashaydigan har qaysi tadbirkor yoki rasmiy idora ana shu xalqaro tilda o‘zini namoyon etishi kerak, degan qoida yoki hujjat yo‘q. Ko‘nglida “Men o‘zbekman, o‘z tilim bor, o‘z millatim bor” deya g‘ururlanadigan yurtidoshimiz, albatta, o‘z ona tilini hammasidan ustun qo‘yishi shart!

– “Richmond” so‘zining ma‘nosi nima?

– Bu so‘z ikki manzilga nisbatan aytiladi. Amerikaning Virjiniya shtati poytaxti va ikkinchisi London shahri yaqinidagi Temza daryosi janubi-g‘arbida joylashgan shaharcha. “Richmond maktabi” degan atamaga ana shu ikki shahardan bittasi asos qilib olingan bo‘lsa kerak. Lekin nima uchun o‘quv markazini ochgan o‘zbek tadbirkori inglizcha nom qo‘yishga qaror qilgan, tushunmay-siz, o‘zining ismini qo‘yib ochsa ham bo‘ladi-ku? Inglizcha nom qo‘ysam, odamlar diqqatini ko‘proq jalb qilaman deb o‘ylagandir balki, bu yog‘i bizga qorong‘i, – deya savolimizga javob qaytaradi O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti kafedra mudiri, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori Nilufar Muhammadova.

TIL HODISASI – DAVLAT SIYOSATI DARAJASIDA

Darvoqe, “Davlat tili haqida”gi qonun qabul qilinganiga 37 yil to‘ldi. Bu davr ichida dunyo miqyosida tan olingan 40 rasmiy tildan biri – o‘zbek tilining obro‘-e‘tiborini oshirish, muloqot, muomala vositasi sifatidagi doirasini kengaytirish bo‘yicha ancha-muncha ishlar qilindi. Bu borada qabul qilinayotgan huquqiy-me‘yoriy hujjatlar davlat tilining mavqeyini oshirishga xizmat qilishi kerak, albatta.

XX asrning o‘zidayoq milliy yozuvimiz uch marta isloh etilgan. Ayni vaqtda ikki imlo – kirill va lotin yozuvidan foydalanilmoqda. Jamiyatda alifbo almashinuvi har doim ham oson kechmagan. Bu turli avlod vakillari uchun qiyinchilik tug‘diradi. 1993-yildagi qonun bilan lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi joriy etilgach, yillar o‘tib, uni hijjalab o‘qiydigan katta va kirill alifbosini tan olmaydigan yosh avlod shakllandi. Lotin alifbosidagi o‘zbek imlosi ham deyarli ommalashib bo‘ldi.

So‘nggi o‘nyillikda aynan davlat tilining qadr-qimmatini oshirishga qaratilgan bir qancha tuzilmalar faoliyat ko‘rsatdi. Qaysidir ma‘noda ular o‘z funksiyasini bajargandir yoki aksincha. Shunisi achinarliki, har yili 21-oktabr sanasiga bir oy qolganda, go‘yoki mavsumiy xarakterdagi ona tilini ardoqlash, uning ahamiyatini ko‘rsatish, madh etish bilan bog‘liq katta-kichik tadbirlar avjiga chiqadi. Savol tug‘iladi, nima uchun bunaqa tadbirlarni faqat 21-oktabr sanasi oldidagina o‘tkazish kerak? Yil mobaynida va uzluksiz davlat tili roli haqida gapirish, madh etish man qilinganmi?

Prezidentimiz va Vazirlar Mahkamasining ko‘plab qarorlari qabul qilinishi, ijroga yo‘naltirilishi bejiz emas. Ochig‘i, shuncha sa‘y-harakatlar bo‘lishiga qaramay, o‘zbek tili yurtimizda to‘liq va batamom davlat tili darajasiga chiqa olmayapti. O‘zbekiston Prezidentining 2025-yil 20-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori yuzaga kelgan vaziyatni chuqur o‘rganish, qat‘iy chora-tadbirlar belgilash va bu boradagi muammolarni bartaraf etish uchun qabul qilinib, ijroga yo‘naltirildi. Bundan avval ham shu mazmundagi davlat hujjatlari ko‘p qabul qilingan, ma‘lum ma‘noda ijrosi ta‘minlangan. Ushbu qarorning barcha bandlarida davlat tilini har tomonlama – ham ilmiy, ham amaliy, ham ommaviy jihatdan rivojlantirishning konseptual vazifalari belgilab berilgan. Bunga muvofiq, Vazirlar Mahkamasi qoshida o‘zbek tilini rivojlantirish jamg‘armasi o‘z faoliyatini boshladi.

Vazirlik, agentlik, qo‘mita, mahalliy hokimiyat kabi yirik tashkilot rahbarlarining davlat tili bo‘yicha maslahatchisi lavozimi joriy etilgani nur ustiga nur bo‘ldi. Aslida, bu lavozimning ilk bor ta‘sis etilishiga 2020-yili qabul qilingan Vazirlar Mahkamasining qarori asos bo‘lgan edi. O‘tgan yillar mobaynida ona tilining mavqeyini oshirish bilan bog‘liq ozmi-ko‘pmi tajriba to‘planishi maslahatchi lavozimida faoliyatini davom ettirayotgan mutaxassislarni yangicha talab bilan ishlashga undamoqda.

LINGVISTIK EKSPERTIZA JARAYONNI YANGILAYDI

Til siyosatidek o‘tkir, dolzarb masalaning o‘zi yo‘q. Qaysi tarmoq, qaysi soha bo‘lmasin, tilning amaldagi imkoniyatlariga murojaat qilinadi, busiz mumkin emas. Barcha tillar qatori o‘zbek tili nafaqat muloqot vositasi, davlatning ko‘pqirrali ichki siyosatini olib borish, xat-hujjatlarni yuritish, rasmiy munosabatlarni tartibga solish, ma‘naviy-ma‘rifiy

jarayonni sog‘lomlashtirish, ta‘lim, tibbiyot, madaniyat, sport, bank, matbuot va boshqa sohalarni rivojlantirishda eng muhim, inkor etib bo‘lmas mexanizm hisoblanadi. Davlat tilining jamiyat hayotidagi nufuzini oshirishga mas‘ul bo‘lgan xizmatchining mas‘uliyati esa ikki, balki o‘n karra yuqori bo‘lishi kerak.

– Vazirlik, qo‘mita, agentlik, hokimiyat va boshqa davlat idoralarida rahbarning til masalasi bo‘yicha maslahatchisi bo‘lib ishlayotgan kishi, avvalo, ana shu lavozimga har tomonlama munosib bo‘lishi kerak. U davlat tiliga nafaqat ona tili, balki millat va mamlakatning ramzi sifatida ehtirom ko‘rsatishi, undan nuqsonsiz to‘g‘ri foydalanishi, boshqalarga o‘rnak bo‘lishi zarur, – deydi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining ma‘naviyat va davlat tilida ish yuritish masalalari bo‘yicha maslahatchisi Faxriddin Hayitov. – Vazirning ma‘naviyat va davlat tili masalalari bo‘yicha maslahatchisi har bir yil uchun “tosh bosadigan” ish rejasi tuzadi. Bunga muvofiq, ishchi guruhi tomonidan hududiy bo‘linmalarining davlat tilida ish yuritish holati muntazam o‘rganilmoqda. 2026-yilning shu davriga qadar Farg‘ona, Andijon, Namangan, Samarqand, Navoiy, Buxoro, Qashqadaryo viloyati boshqarmalari, tuman (shahar) bo‘limlaridagi davlat tilida ish yuritish holati o‘rganilib, xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘yilgan tashkilotlar ogohlantirilib, chora ko‘rildi.

Vazirlik, uning hududiy boshqarmalari, tuman (shahar) bo‘limlarida ish yuritish to‘liq davlat tilida, lotin imlosiga asoslangan o‘zbek alifbosida olib borilmoqda. “Davlat tilida qabul qilinmagan idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni qayta ko‘rib chiqish hamda Vazirlar Mahkamasiga kiritish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi” ishlab chiqilib, ijrosi ta‘minlandi. Avval rus tilida qabul qilingan idoraviy hujjatlar to‘liq davlat tiliga o‘girildi va ijroga yo‘naltirilmoqda. Vazirlik xodimlari tomonidan tayyorlanayotgan hujjatlar doimiy lingvistik ekspertizadan o‘tkazilyapti.

Lingvistik ekspertiza nima? Bu til siyosatini izchil va haqqoniy amalga oshirishdagi yangicha qadam hisoblanadi. Tayyorlangan hujjat loyihasini davlat tili qoidalari bo‘yicha uslubiy va imloviy jihatdan ko‘rib chiqish, xulosa berish bu jarayonning negizini tashkil qiladi.

2026-yilning shu davriga qadar vazirlik tomonidan tayyorlangan 70 dan ortiq normativ-huquqiy hujjat loyihalariga lingvistik xulosa berildi. Bular sirasiga qabul qilinadigan yangi qonun, Prezident farmoni, farmoyishi, Vazirlar Mahkamasining qarori loyihalari kiradi. Davlat xizmatchilarining ona tili bo‘yicha bilim va ko‘nikmasi, e‘tiborini oshirib borish uchun har oyda vazirlik va viloyat boshqarmalari xodimlari uchun malaka oshirish kurslari tashkil qilinmoqda. Vazirlik xodimlarining malakasini oshirish markazi qisqa o‘quv kurslarida “Davlat tilida ish yuritish” dars soatlari o‘tkazilmoqda. Yilning shu davriga qadar 1,5 ming nafar xodim malaka oshirdi.

Mehnatga haq to‘lash va mehnat standartlari boshqarmasi tomonidan

“Mashg‘ulotlar milliy klassifikatsiyasi” va “Xizmatchilarning asosiy lavozimlari va ishchilar kasblari klassifikatori” loyihasi ishlab chiqildi. Har ikkala loyiha tilshunoslar guruhi tomonidan qayta ko‘rib chiqish, yakdil xulosaga kelish bo‘yicha Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markaziga yuborilib, tahrirdan o‘tkazildi.

Vazirligimiz qoshida atamalar ishchi guruhi faoliyati yo‘lga qo‘yilib, Kambag‘allik va mehnat bozori tadqiqotlari instituti mutaxassislari bilan birgalikda sohaga doir izohli lug‘at tayyorlash jarayoniga kirishildi. Ayni paytgacha nashr qilingan “Mehnat va bandlik sohasiga oid atamalarining izohli lug‘ati” yangi so‘z va atamalar izohi bilan boyitilmoqda. Vazirlik xodimlarining savodxonlik darajasi qanday, bu barchasidan muhim. Har yili vazirlik rahbariyati maxsus buyrug‘iga muvofiq, xodimlar o‘rtasida diktant va bayon yozish bo‘yicha tanlov o‘tkazib kelmoqdamiz. Alisher Navoiy nomidagi o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi bilan hamkorlikda o‘tkazilayotgan ushbu tanlovda xodimning davlat tili bo‘yicha savodxonligi sinovdan o‘tkaziladi. Ona tilimizning eng yaxshi bilimdonlari saralanib, taqdirlansa, savodxonligi pastroq xizmatchilar o‘quv kurslariga jalb qilindi.

O'ZBEK TADBIRKORIDA MILLIY G'URUR BORMI?

Poytaxt ko‘cha va xiyobonlari tanib bo‘lmas darajada o‘zgarib borayotir. Hukumat idoralari yangicha, ko‘rkam qiyofa kasb etmoqda. Ko‘pqavatli turarjoy binolarining sanog‘iga yeta olmay-siz. Nodavlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlari, maktab va universitetlar sonida faqat o‘shish! Bularning barchasi – yaxshilikka! Bino va inshootlarning nomlanishi qanday, degan savol paydo bo‘ladi. Afsuski, bu borada o‘zbek tiliga nisbatan hurmat va e‘tiborni emas, balki uni toptash, mensimaslik holatiga guvohlik beruvchi ajnabiy nomlarga duch kelamiz: “Golden house”, “Real house”, “Fayzli home” (ya‘ni uy), “Mirabad avenue”, “Beauty salon”, “Business center”... Agar davom ettirsak O‘zbekistonda ishlab chiqarilayotgan mahalliy mahsulotlar ham o‘zbekcha nom bilan emas, rus tilida iste‘molchiga tortiq etilmoqda. Jumladan, sut mahsulotlarining nomlanishi: “Donna” sariyog‘i, “Ханский”, “Царский” pishlog‘i, “Yessi” qatig‘i, “Настоящий пломбир”, “Мороженое как раньше” va hokazo. “Blits”, “Наш сад”, “Сочная долина”, “Аристократ”, “Buko” kabi meva sharbatlari. Hatto dori vositalarining nomlanishi ham kishini ajablantiradi: “Anti bit”, ya‘ni bit (pedikulyoz)ga qarshi ishlab chiqarilgan mahsulot.

Bularni-ku qo‘yavering, xizmat ko‘rsatish shoxobchalarida ham o‘zbekona muqobili bo‘laturib, ruscha shakli qo‘llangan atamalar g‘ij-g‘ij.

BUGUNGI LISONIY VAZIYAT QANDAY?

“O‘z-o‘ziga xizmat” deb yozish o‘rniga “Самообслуживание”, “Mashina yuvish” deb yozish o‘rniga “Car wash”, “Go‘zallik saloni” degandan ko‘ra “Beauty salon”, “Sut mahsulotlari” deyish o‘rniga “Молочный домик”...

Xo‘sh, Toshkent shahar hokimiyati mas‘ullarining bunday manzaralarga munosabati qanday? Poytaxtda ajnabiy nomlar ommaviy tus olishiga qarshi chora-tadbirlar ko‘rilyaptimi?

– To‘g‘ri, O‘zbekiston hukumati, shaxsan, Prezidentimiz tashabbusi, takliflari bo‘yicha davlat miqyosida ona tilimiz nufuzini oshirish jarayoni qat‘iy tartibga olinmoqda, – deydi Toshkent shahar hokimining ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish, “Davlat tili haqida”gi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta‘minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi Akmal Ro‘zitoyev. – Ammo poytaxtimiz ko‘chalaridagi inglizcha, ruscha, bu ham yetmaganday, chalasavodlik bilan yozilgan peshlavha, e‘lon va afishalarni ko‘rgan kishining ko‘ngli xijil tortadi. Bu adabiy til normalaridan bexabar tadbirkorlar, ishbilarmon doira vakillari faoliyatiga xos voqelik, aslida. Har bir tuman hokimligida ishlayotgan mas‘ullarimiz bor. Ular davlat tilining ahamiyati xususida targ‘ibot-tashviqot jarayonini tashkil etmoqda. “Davlat tili haqida”gi qonunimiz 20-moddasi hamda yangi tahrirdagi “Reklama to‘g‘risida”gi qonunning 6-moddasi talablariga asosan, tashqi targ‘ibot vositalarining davlat tili va lotin yozuvida bo‘lishini ta‘minlash zarur.

O‘tgan 2025–2026-yillarning dastlabki choragi davomida mas‘ullar tomonidan qonun hujjatlariga mos kelmaydigan tashqi yozuvlardan 17 386 tasi aniqlandi. Shundan xorijiy tilda yozilganlari 9 375 ta, imlo xatosi mavjudlari 8 011 tani tashkil etdi. “Reklama to‘g‘risida”gi qonunning 6-moddasida reklama davlat tilida tarqatilishi qayd qilingan. Peshlavha va reklamaning boshqa tillardagi tarjimasi matni uning pastki qismida gorizontall qilib joylashtirilishi, umumiy maydonning qirq foizidan oshmasligi, harflar o‘lchami davlat tilidagi reklama yozuvidan kichik bo‘lishi belgilab qo‘yilgan. Ko‘rilgan chora-tadbirlar natijasida yozuvlarning asosiy qismi qonun talablariga moslashtirildi. 1 670 ta tashqi yozuvning kamchiliklarini bartaraf etish bo‘yicha ogohlantirish xati berilib, qisqa muddatda o‘zgartirish choralari ko‘rilmoqda. Yana bir muammo shundaki, nafaqat Toshkent shahri, balki mamlakatimizning boshqa viloyatlarida ham geografik obyektlar nomlanishida nomuvofiqliklar bor. Mazkur yo‘nalishda ish yurituvchi Toshkent shahar komissiyasi Raqamli rivojlanish departamenti toponimika bo‘limi mutaxassislari bilan hamkorlikda Bektemir, Sergeli, Yashnobod tumanlaridagi 700 dan ortiq nomsiz va nomi takror aholi punktlari tarkibiy qismlari nomlari bosqichma-bosqich muvofiqlashtirildi. Yangi hayot tumani hokimligi tomonidan taqdim etilgan 475 ta geografik obyektni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha takliflar Xalq deputatlari Toshkent shahar kengashi sessiyalarida ko‘rib chiqilmoqda.

OTAXO‘JAYEVM YOKI ATAXODJAYEV?

Shaxsiy ish yoki xizmat yuzasidan davlat idora, tadbirkorlik subyektlariga bordingiz. Qaysidir rahbar yoki xodimning oldiga kirishingiz kerak. Beixtiyor uning eshigiga yozib qo‘yilgan ism-familiyasiga ko‘zingiz tushadi: *Ataxodjayev Rahmatilla Inagamovich* yoki *Irgashev Baybuta Shakirovich*. Aslida, adabiy til normalariga muvofiq, **Otaxo‘jayev Rahmatilla Inog‘omovich, Ergashev Boybo‘ta Shokirovich** tarzida yozilishi kerak. Ammo e‘tiroz bildirilsa, ism-familiyasi hujjatida xuddi shunday yozilganini ro‘kach qiladigan yurtdoshlarimiz juda ko‘p. Xo‘sh, buni bartaraf etish mumkinmi? Mutaxassislar bu savolga “ha” deb javob berishadi.

– Hujjatida ism-familiyasi buzib yozilgan fuqarolar bu muammodan xalos bo‘lish uchun “Oila” kodeksining 70-moddasiga muvofiq, farzandi 16 yoshga to‘lishidan oldin fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlariga murojaat qilishi va uning ism-familiyasini to‘g‘rilab olishi mumkin, – deydi ushbu holat xususida Adliya vazirligi mas‘ul xodimi Hasan Nasimov. – Mustaqillikdan avvalgi davrda fuqarolik holatini belgilaydigan deyarli barcha hujjatlar rus tilida yozilgan. Bolaning tug‘ilganini qayd etishda unga familiya milliy an‘analar bo‘yicha ota yoki ona tomonidan boboning ismi bo‘yicha beriladi. Nizolar vasiylik va homiylik organi, konsullik okrugida esa konsul tomonidan hal etilishi zarur.

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi qonunining 15-moddasiga asosan, agar otaning ism-familiyasida imlo xatoliklari mavjud bo‘lsa, uning xohishiga ko‘ra, bolaning tug‘ilganlik haqidagi dalolatnoma yozuvi to‘g‘rilangan holda qayd qilinishi mumkin. O‘n olti yoshga to‘lgan shaxsning tug‘ilish, voyaga yetgan fuqaroning nikoh tuzish, nikohdan ajralishni qayd etish daftariga o‘zgartirish kiritish uning arizasiga binoan amalga oshiriladi. O‘n olti yoshga to‘lmagan shaxsning tug‘ilish haqidagi yozuv daftariga uning ota-onasi arizasiga binoan o‘zgartirish kiritiladi. Bu masalani FHDY organi mas‘ullari ariza tushgan kundan boshlab 10 kun mobaynida ko‘rib chiqishi kerak. Avval bu boshog‘riq masala bo‘lib, bitta hujjatni o‘zgartirish fuqaroga tegishli boshqa hujjatlarni ham aynan shu holatga keltirishni taqozo qilardi. Bu muammoni hal qilishga nisbatan fuqarolarimizda ham ehtiyoj paydo bo‘lmoqda. Adliya vazirligi tomonidan 2026-yil 7-fevralda tasdiqlangan reja-grafik asosida tuman (shahar) FHDY bo‘limlari ism-sharifni o‘zgartirish amaliyoti tahlil qilinganida, 2024–2025-yillarda 13 096 ta holat bo‘yicha murojaat ko‘rib chiqilgan. 2025-yildagi murojaatlar soni 2024-yilga nisbatan 51 foizga kamaygan. 2024-yilda eng ko‘p ariza Toshkent shahridagi FHDY bo‘limlari faoliyatida qayd etilgan. Farg‘ona viloyatida bu ko‘rsatkich 1 049, Andijonda esa 957 tani tashkil etgan. O‘tgan yili ham aynan shu yo‘nalishda anchagina ijobiy natijalar qo‘lga kiritildi. Bu nimani ko‘rsa-

tadi? Demak, fuqarolarimizda o‘z ona tiliga nisbatan e‘tibor, g‘urur shakllanmoqda. Mazkur masalani hal qilishga hech qanday monelik yo‘q.

Rivojlangan mamlakatlardagi kabi fuqaroga tegishli barcha ma‘lumotlar unga berilgan JSHSHIR(jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami) orqali shakllantirilmoqda. Bu fuqaro o‘zi haqidagi ma‘lumotlarni bir necha marotaba almashtirsa ham, uning JSHSHIR raqami o‘zgarishsiz qolishini kafolatlaydi. Identifikatsiya raqami 14 ta sondan iborat bo‘lib, shaxsning pasportiga muhr lanadi va u abadiy o‘zgarmaydi.

Rivojlangan mamlakatlardagi kabi O‘zbekistonda ham fuqaroga tegishli ko‘plab ma‘lumotlar JSHSHIR raqami orqali aniqlanadi. Eng muhimi, shaxsning ism-sharifi o‘zgargan taqdirda ham uning JSHSHIR raqami o‘zgarmaydi. 14 xonali raqam shaxsni identifikatsiya qilishda doimiy asos vazifasini bajaradi. Shu bois, fuqaroning ism-familiyasi qonunchilikda belgilangan talab bilan o‘zgarishi uning davlat tizimlaridagi identifikatsiyasini yo‘qotishga olib kelmaydi. Demak, “Hujjatimda ism-sharifim shunday yozilgan, endi uni hech qachon o‘zgartira olmayman”, degan tushuncha bugungi yangilanish nuqtayi nazaridan mutlaqo asossizdir. Umuman, ism-familiyaning adabiy til me‘yorlari bo‘yicha to‘g‘ri yozilishi nafaqat shaxsiy huquq, balki o‘z ona tilimizga bo‘lgan hurmat-ehtiromning ham ifodasi bo‘lib qoladi.

TADQIQOT AMALIYOTDA QO‘LLANILADIMI?

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan til siyosati murakkab, serqirra va mashaqqatli. Uni to‘laqonli ro‘yobga chiqarish uchun bir-ikki yil kamlik qiladi. Muayyan doiradagi mutaxassislarining sa‘y-harakati, kuyib-pishishi, tashabbuskorligi kutilgan natijani beravermaydi. Qachonki, keng jamoatchilik, avvalo, davlat idoralari, mahalliy va ijro hokimiyati organlari rahbarlari katta kuch, sabrardosh va qat‘iyat bilan kurash olib borsagina, olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning natijadorligiga erishilsa, o‘zbek tiliga munosabat o‘zgaradi, uning davlat miqyosidagi maqomi kuchayadi, ajnabiy, almoyi-jalmoyi yozuvlar o‘rnida sof o‘zbekona atamalar paydo bo‘ladi.

– Tilshunoslik bo‘yicha himoya qilinayotgan dissertatsiyalarda leksikologiya, terminologiya, frazeologiya, pragmatikologiya, kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik, kompyuter, korpus lingvistikasi kabi zamonaviy yo‘nalishlarning kengayib borayotgani ijobiy holat, – deydi Alisher Navoiy nomidagi o‘zbek tili va adabiyoti universiteti kafedra mudiri, filologiya fanlari doktori, professor Shahlo Hamroyeva. – Biroq bu yo‘nalishlarning mavjudligi muammolar yechilyapti, degani emas. Asosiy masala – ilmiy natijaning til amaliyotiga qay darajada tatbiq etilayotganidir. Ayrim tadqiqotlar muayyan hodisani chuqur nazariy jihatdan tavsiflaydi, biroq uning natijasi lug‘at, elektron resurs, til korpusi, metodik tavsiya, terminologik baza yoki amaliy dastur ko‘rinishida jamiyatga qaytib kelmaydi. Demak, tilshunos-



Hulkan TO‘YMANOVA,
O‘zbekiston Respublikasida
xizmat ko‘rsatgan jurnalist,
I darajali “Mehnat faxriysi”

likda “tadqiq qilindi” degan xulosadan “tadqiqot natijasi amaliyotda ishlayapti” degan jarayonga o‘tish zarur. Tadqiqotlar ulushini dissertatsiya soni bilan emas, davlat siyosatida belgilangan muammolarning nechta ilmiy-amaliy mexanizm orqali hal etilgani bilan o‘lchash maqsadga muvofiq. Masalan, yangi terminologik lug‘at yaratildimi? O‘zbek tilining muayyan sohaga oid korpusi shakllantirildimi? Yangi imlo yoki grammatik me‘yor ilmiy asoslandimi? Elektron til resursi yaratildimi? Tadqiqot natijasi ta‘lim, davlat boshqaruvi yoki raqamli texnologiya jarayoniga joriy qilindimi? Ana shunday natijalar ilmiy tadqiqotning real samaradorligini ko‘rsatadi. Tilni rivojlantirish bilan bog‘liq muammolar ham aynan shu nuqtada yaqqol ko‘rinadi.

Birinchidan, o‘zbek tilining zamonaviy terminologik bazasini tizimli ravishda shakllantirish va standartlash tirish dolzarbdir. Fan, texnika, tibbiyot, iqtisodiyot, axborot texnologiyalari sohalarida yangi tushunchalar tez paydo bo‘lmoqda, biroq ularning o‘zbekcha ifodasi, qo‘llanishi va me‘yoriy maqomi doimo bir xil emas.

Ikkinchidan, o‘zbek tilining raqamli makondagi resurslari yetarli darajada rivojlantirilishi kerak. Katta hajmdagi sifatli korpuslar, belgilangan matn bazalari, elektron lug‘atlar, morfologik va sintaktik analizatorlar, nutqni tanish va sintez qilish tizimlari, avtomatik tarjima texnologiyalari milliy tilning kelajakdagi raqamli mavqeyini belgilaydi. Uchinchidan, til me‘yorlarini zamonaviy kommunikatsiya sharoitiga mos ravishda takomillashtirish ham muhim vazifadir.

Ona tili – millat ramzi, g‘ururi, ori, faxri. U har bir millatdoshimizning ko‘ksida urib turadigan yuragiga jo bo‘lgan. Hukumat qarori bilan 2023-yildan boshlab lotin yozuvida asoslangan o‘zbek alifbosiga bosqichma-bosqich o‘tilmoqda. Bu jarayonga faqat mutasaddi tashkilotlar, tilshunos olimlarga emas, keng jamoatchilik ham har tomonlama tayyor bo‘lishi kerak. Ona tilini e‘zozlash, uning imkoniyatlaridan keng foydalanish, o‘zbek tilini kamsitish, mensimaslik kabi holatlarga murosasiz bo‘lish har bir rahbar, har bir vatandoshimizning fuqarolik burchiga aylanishi kerak. Shundagina Yangi O‘zbekistonda o‘zbek tilining maqomi oshadi, har tomonlama ardoqlanadi!



Qutlov

ILMGA SADOQAT VA USTOZLIK SHARAFI

1979-yilning dekabr oyida ustozlar qo'llovi va taqdirning ajoyib tuhfasi tufayli O'zFA Til va adabiyot institutiga ishga joylashdim. Shunday qilib o'n yil – o'tgan asrning 80-yillari mana shu muqaddas ilmiy dargohda ishladim. Bu davr institutning oltin davri bo'lgan, desam mubolag'a bo'lmas. O'sha kezlari institutda respublikamizning eng peshqadam filolog olimlari faoliyat yuritardi. Jumladan, I.Sultonov, M.Qo'shjonov, P.Qodirov, A.Hayitmetov, A.Abdurashidov, S.Mamajonov, N.Vladimirova, E.Karimov, T.Mirzayev, N.Karimov, Y.Is'hoqov, B.Nazarov, B.Sarimsoqov, I.Haqqulov, N.Rahimjonov, A.Musaqulov kabi turli avlodga mansub ko'plab adabiyotshunoslar qatori S.Meliyev, Z.Isomiddinov, N.Jumayev, S.Olimov, A.Jabborov, A.Bag'irov, R.Barakayev, M.Jo'rayev, Sh.Turdimov, M.Olimov, M.Namozov kabi o'nlab iste'dodli yosh tadqiqotchilar jamlangan edi.

Qadrdon do'stimiz, bugungi kunda qutlug' 70 yoshini nishonlayotgan zahmatkash olim, fan doktori, professor Umurzoq Jumanazarov bilan ham shu dargohda tanishganmiz. Umurzoq folklor bo'limida ishlar edi. Mazkur bo'limda respublikamizda taniqli bo'lgan folklorshunos olimlar T.Mirzayev, B.Sarimsoqov, K.Imomov, M.Alaviya kabi ustozlar bilan birga A.Musaqulov, M.Jo'rayev, Sh.Turdimov kabi yosh iste'dodlar ham ilmiy izlanishlar olib borishardi.

Umurzoq tabiatan sabr-toqatli, ilmiy izlanishlarga chidamli, ertalabdan kechgacha o'tirib yozuv-chizuv qilishdan toqatsizlanmaydigan xislati bilan ko'pchiligimizga ibrat bo'lardi. O'sha kezlari hamma qatori biz ham erta bahordan kech kuzgacha viloyat dalalarida ekin-tikin yoki paxta terimiga chiqardik. Ayniqsa paxta terimi payti ishdan bo'sh vaqt samarali kechar: ba'zilar qarmoq ko'tarib daryo bo'yiga baliq oviga, shaxmat-shashka yoki futbol o'yiniga oshiqar, ba'zilar davra qurib ilmiy bahs-munozara qilishardi. Umurzoq esa bunday paytlari o'zi kabi folklorshunos tengqurlari qatori qalin daftarini qo'ltiqlab qishloq orolab ketar va xalq og'zaki ijod namunalari yozib olish bilan mashg'ul bo'lardi. Yosh folklorchilarimiz shunday imkoniyatdan ham unumli foydalanishga harakat qilishardi. Umurzoq har doim tengdosh do'stlariga ilmiy izlanishlarda ikkillanmaslik zarurligini, ishini tezroq yakunlab, tezroq himoya qilish lozimligini ta'kidlar edi. O'zi ham shu qoidaga amal qilib, yoshlar orasida peshqadamlardan bo'lib fan nomzodi, fan doktori ilmiy dara-

jasiga erishdi, birinchilardan bo'lib professor ilmiy unvoniga sazovor bo'ldi.

U O'zbekiston fan arbobi, yirik folklorshunos olim, akademik T.Mirzayev ilmiy rahbarligida 1982-yili "O'zbek xalq tarixiy qo'shiqlari (spetsifikasi, tasnifi va poetikasi)" mavzusida nomzodlik, 1991-yili esa "O'zbek tarixiy folklorining janrlari sostavi va ularning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli yoqladi. Folklorshunoslik sohasidagi tadqiqotlarini oliy ta'limdagi faoliyati bilan qo'shib olib borgan olim 1986-yilda dotsent, 1993-yili professor ilmiy unvonlariga sazovor bo'ldi.

Olimning ilmiy tadqiqotlari dolzarb, o'z davri uchun hali ishlanmagan mavzu – tarixiy xalq qo'shiqlari va dostonlari tadqiqiga bag'ishlanganligi bilan ahamiyatli edi. Ayniqsa, birinchi jahon urushi davrida yaratilgan va ijtimoiy voqelik bilan bevosita aloqador bo'lgan xalq qo'shiqlarining ijtimoiy-tarixiy mohiyati, tarixiy doston va qo'shiqlar genezisi, badiiyati va estetik ta'sirchanligi, folklor va hayot aloqadorligi masalasining yaxlit bir ilmiy konsepsiya sifatida o'rganilishi folklorshunoslikdagi yangi yo'nalish sifatida baholanishga loyiq ishlardan biri bo'ldi.

Shu jihatdan olimning tadqiqotlari o'zbek folklorshunosligida birinchilardan bo'lib tarixiy qo'shiq janrining genezisi, struktural tiplari, tasnifi, xalq baxshilari repertuariga ta'siri, g'oyaviy-estetik vazifasi va badiiyati masalalarini o'rganishda tarixiy voqelik bilan xalq ijodiyotining bevosita aloqadorligini ilmiy asoslashi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.



Qurdosh QAHRAMONOV,
filologiya fanlari doktori,
professor

Uning "Jangovar yillar poeziyasi" (1988), "Da'vatkor xalq she'riyati" (1988), "Jasorat va sadoqat talqini" (1989), "O'zbek xalq tarixiy qo'shiqlari" (rus tilida, 1989), "Qo'shiq: tarix va ijod" (2007), "Tarix va xalq ijodiyoti badiiyati" (2007) kabi monografiyalarida bu ilmiy konsepsiya o'zining yorqin ifodasini topdi.

"O'zbek folklori va tarixiy voqelik" (1991), "Xalq tarixi sahifalarini varaqlaganda" (2006), "El suygan baxshining epik olami" (2007) singari monografiyalari hamda "Tarixiy doston va tarixiy qo'shiq munosabatlari doir", "Doston va tarixiy voqelik", "Tarixiy eposning turlari va hozirgi ahvoli", "Xalq eposining tarixiyli va tarixiy epos masalasi", "Oysuluv" – sof tarixiy doston", "Tarixiy dostonlar" kabi ilmiy maqolalarida bu tipdagi dostonlarning janr xususiyatlari, badiiyati va dostonchilik tarixida tutgan o'rni hamda poetikasi masalalari ilmiy asosda yoritib berildi.

U.Jumanazarov tadqiqotchilik bilan pedagoglik faoliyatini birdek olib boradigan olimlarimizdan biridir. Mana, yaqin qirq yildan oshibdiki, u Jizzax davlat pedagogika universitetida talabalarga saboq berib kelmoqda. O'zining pedagoglik faoliyati davomida minglab shogirdlariga fan sirlarini o'rgatib, ta'lim sohasi yangicha dunyoqarash va bilimga ega bo'lgan

yosh kadrlar bilan boyishiga munosib hissa qo'shib kelmoqda. Olim tomonidan yaratilgan 30 dan ortiq darslik va qo'llanmalar, uslubiy dasturlar talabalar, professor-o'qituvchilar uchun muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda.

Yaqinda olimning uzoq yillik ilmiy-pedagogik faoliyati davomida yaratilgan tadqiqotlari saralanib, ikki jildlik tadqiqotlar to'plami chop etildi. "Tarix, folklor va ijod masalalari tadqiqi" deb nomlanuvchi birinchi jildda olimning turli davrlarda olib borgan tadqiqotlari to'rt bo'limdan iborat qilib shakllantirilgan. "Folklor, adabiyot va tarbiya masalalari" deb nomlanuvchi ikkinchi jildda ilmiy tadqiqotlar bilan birga ta'lim tizimiga oid kuzatishlar, metodik tavsiyalar jamlangan. Ta'kidlash joiz, bu to'plamdan joy olgan tadqiqotlar kelajakda yosh izlanuvchilar uchun tadqiqot manbayi bo'lib xizmat qilishi, magistrlik va falsafa doktori ilmiy darajalari uchun mavzu qilib berilishi maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Hammualliflikda yaratilgan "Turkiy xalqlar adabiyoti" nomli tadqiqotining Turkiya va Germaniyada nashr etilishi, shuningdek, o'nlab ilmiy maqolalari xorijiy jurnallarda chop etilishi olimning nafaqat respublikamizda, ayni paytda chet ellarda ham e'tirof etilganining o'ziga xos namunasidir.

U.Jumanazarov tarjimayi holining bir yo'nalishini respublikamiz ilm-fani rivojidagi faoliyati tashkil etadi. U uzoq yillardan beri ko'plab Ixtisoslashgan ilmiy kengash a'zosi, raisi, shuningdek, OAK-da filologiya yo'nalishi bo'yicha ekspert (2013–2018) sifatida ham faoliyat yuritib, filologiya ilmi rivojiga munosib hissa qo'shib kelmoqda. U ustoz sifatida o'nlab yosh ilmiy tadqiqotchilarning ilmiy ishlariga rahbarlik qildi. Shogirdlari bugungi kunda respublikamizning turli hududlarida samarali faoliyat yuritib, ustozlari ishonchini oqlashmoqda. Farzandlari ham ota izidan borib, fan doktori, fan nomzodi ilmiy darajalariga ega bo'lib, respublikamiz ilm-fani taraqqiyotiga munosib hissa qo'shib kelishmoqda. Umurzoqning do'st sifatida ham maqtovg'a loyiq xislatlari bisyor: do'stlarga, qadrdonlarga sadoqatli, samimiy, qirq yillik rishtalarni uzmay hamisha muloqotda bo'lib kelayotgani tahsinga loyiq.

Bugun qutlug' 70 yoshini nishonlayotgan qadrdon do'stimizni tavallud kuni bilan muborakbod etarkanmiz, unga sihat-salomatlik, oilaviy xotirjamlik, ilmiy-pedagoglik faoliyatida yanada yuksak parvozlar tilab qolamiz.

Nigoh

SO'ZGA SIG'G AN OLAM

Etibor berganmisiz, ba'zan birgina so'z bizni uzoq yillarga – ortga qaytara oladi, osmonga bo'ylashtiradi yoki bir nuqtadan ko'z uzmay o'ylar girdobiga g'arq bo'lishimizga sabab bo'ladi.

"Onam" deysiz: rang-barang tasmalar xayolingizdan yashin tezligida o'tib ulguradi: tandirdin endigina uzilgan issiq non, hovlining salqin supasi, u ekkani o'sma, rayhonmi-yey?! Har safar ish, o'qishga kuzatayotganda ko'rinmay ketgunimizcha izimizdan termilgan ko'zlar... "Vatan" deysiz: bolaligingiz izi qolgan ko'chalar, maktab, mahalla, ota-ona, ilk qo'l siqishgan do'stlaringiz yodingizga tushib, beixtiyor labingizga nimtabassum yugurganday bo'ladi. Zum o'tmay, tomog'ingizga tiqilgan sog'inchdan yutib, ko'zoynagingizni olib ko'zyoshingizni artgan bo'lasiz. Qiziq, birgina so'zga shuncha xotira, shuncha his qanday sig'arkan?

"O'zbek tili kambag'al emas, balki o'zbek tilini kambag'al deguvchilarning o'zi kambag'al. Ular o'z nodonliklarini o'zbek tiliga to'nkamasinlar", degani-da Abdulla Qodiriy naqadar haq edi. Shu

o'rinda aytish joizki, til mavqeyi so'z zalvori bilan o'lchanganda edi, o'zbek tili allaqachon butun dunyo o'rganishga bel bog'lagan tilga aylanardi! Deylik, "ko'ngil" so'zi. Uni boshqa tilga birgina so'z bilan to'la-to'kis tarjima qilib qo'yish qiyin. Ustiga-ustak, o'zbek tilida "ko'ngil qoladi", "ko'ngil topiladi", "ko'ngil ko'tariladi", "ko'ngil og'riydi", "ko'ngil yayraydi", "ko'ngil tusaydi". Hatto "ko'ngilga qaraladi". Yoki "yuz" so'zini olaylik. "Yuzy yorug' bo'lish" degan go'zal qochirimni boshqa tilda ayni ma'no va ohangda berish osonmikan?! "Yuzy shuvut bo'ldi" degan achchiq ta'nani-chi?! Yana qaysi tilda "yuz o'girmoq", "yuz ko'rishmoq" deya bir so'zni har maqomga "o'ynatish" mumkin?! "Qara" bilan "nazar sol" bir xil emas. "Gapirdi" bilan "dardini to'kdi" bir ma'noni anglatmaydi. "Yurdi" bilan "odimladi", "kezdi", "sudraldi", "qa-

dam tashladi", "shoshildi"ning "og'irligi" teng emas! Ayting-chi, siz o'rgangan qaysi chet tilining ona xalqi uzoq yillar jamg'argan shunday katta xazinasi bor?!

Tilimiz hatto tabiatni-da jonlantiradi: shamol esmaydi – ba'zan yelvizak hovlini aylanib yuradi. Tong otmaydi – tong yorishadi. Quyosh shunchaki chiqmaydi, u ufqdan bosh ko'taradi. Kuz boshlanmaydi – kuz kirib keladi. Yomg'ir yog'maydi – gohida osmonning ko'ngli bo'shab ketgandek tuyuladi... "Ko'ngil ko'ngildan suv ichar", deydi xalqimiz. Qanday sodda jumla! Ammo undagi yashirin falsafani shu yuki bilan boshqa xalqlar anglay olishi uchun ular tilida yetkazib berishga so'z topilarmikan?! Yana "Yaxshilik qil, daryoga ot", deydi dono xalqimiz. Ajabo, deb yuborasan kishi! Bir qarashda oddiy nasihat, ammo unda olijanob xalqimizning ezigulini mukofot kutmay qilish haqidagi axloqiy qarashi mujassamlangan. Mana, nima uchun o'zbek tili asrlar qariidan omon kelmoqda!

O'zbek tilini ajdodlarimizdan qolgan bebaho so'zlar bilan to'la katta bir sandiqqa



Shahnoza YANGIBOYEVA,
"Ma'rifat" muxbiri

o'xshataman. Biz har kuni o'sha sandiqni ochib, so'zlar orqali kimgadir quvonch hadya etamiz, kimgadir sog'inchimizni izhor aylaymiz, yana kim bilandir do'stlik rishtalarini bog'laymiz. Ammo unda hali ishlatilmagan iboralar, kashf etilmagan ma'nolar, hali yozilmagan she'rlar, hali yaratilmagan hikoyalar, yangi avlodning yangi so'zlari uchun bo'sh joylar ko'p deb o'ylayman. Ularni topish, asrash va kelajak avlodga yetkazish – zimmamizdagi eng sharaflil vazifalardan biridir.

Iqtidorli yoshlar – yurt kelajagi

Badaxshonda shodiyona



Bundan besh yil oldin taniqli yozuvchi va folklorshunos olimi Guljahon Mardonova Ikkinchi jahon urushidan keyingi tiklanish yillarida, aniqrog'i, 1952-yili otasi Omon Mardonov hashar yo'li bilan qurilishiga bosh bo'lgan Qamashi tumanidagi 6-maktabda "Maktab tarixi" foto-xronikal muzeyi tashkil etilishiga bosh bo'lgan edi.

Kasbim tarix fani muallimi bo'lgani bois, maktab tarixi bilan bog'liq muzeyning ochilishi naqadar muhimligini anglaganimdan quvonib ketdim. Chunki bilamanki, bu muzeydan joy olgan suratlar maktab tarixi haqida hikoya qiladi. Rostdan ham xuddi shunday bo'ldi. Muzeydagi ko'hna suratlarida el-linginchi yillarning o'quvchi va o'qituvchilari qiyofalari muhrlangan. Urushdan keyingi og'ir yillarda yeyishga noni, kiyishga kiyimi bo'lmagan bolalar ma'rifat izlash yo'lida biri bobosi, birlari momosi, qay birlari amaki, tog'a, amma, xolalaridan qolgan eski liboslarda bo'lsa ham, ammo ularning ko'zlarida nur chaqna turibdi. Chunki ular bilim olish, o'rganish, izlanish yo'liga chiqqanlar. O'qituvchilar ham egnilarida uringan libos, boshlarida yarashmagan qo'pol telpak, oyoqlarida etik, kalish-mahsi bo'lsa-da, bolalarga ta'lim berayotganidan shodligi aks etgan. Ma'rifat ana shunday ko'zga ko'rinmas, qo'l bilan ushlab bo'lmay sehirli kuchki, u insonning ruhini yuksaltiradi, o'ziga ishonchini orttiradi.

Albatta, maktabning qurilish jara-yonlari fotolavhalarda saqlanib qolmagan. Lekin muassis keksalar bilan suhbatlashib, taniqli rassom Rayhona Hayitaliyevaga g'oya berdi. Natijada yon-atrof yigirma besh kilometr masofada maktab bo'lmaganligi, "Badaxshonga yo'l" hamda "Maktab hashari" asarlari moybo'yoqda yaratildi. Bu ustoz Omon Mardonovning maktab qurilishiga bosh bo'lishi hududlar taraqqiyotiga katta hissa qo'shganligidan dalolat beradi. Ko'p o'tmay Guljahon Mardonova hamda maktab direktori Vasliddin Imomov yana bir loyiha ustida hujjat imzolashdi. Bu hujjat 2021-2022-o'quv yilidan boshlab maktabda "Omon Mardonov nomidagi yilda bir martalik pul mukofoti"ni ta'sis etishga mo'ljallangan edi.

– Badaxshondan taniqli olimlar, yo-

zuvchi, rassomlar yetishib chiqqan. Ushbu dargohga asos solgan otam Omon Mardonov maktab hududida yordamchi xo'jalik, bog', issiqxona qurdirgan, "polutorka" mashina, ulochi otlar olinib, ijaraga berilgan va ulardan tushgan mablag'lar tuman bankida ochilgan maxsus hisobraqamiga qo'yib borilgan. Qizlar o'qishdan tashqari bichish-tikish, o'g'il bolalar haydovchilik guvohnomasi olishlari uchun maxsus o'qishlar tashkil qilingan. Otam 1953-yilda qishlog'imizga Rossiyadan fizika-matematika, rus tili va adabiyoti, ingliz tili, mehnat ta'limi o'qituvchilarini oilasi bilan ko'chirib keltgan. Ular avval qishloq xonadonlarida yashab, so'ngra yotoqxona, keyin uy-joy bilan ta'minlangan. Otam hamisha qishlog'imizdan ilmiy yoshlar chiqishini orzu qilgan va ana shu yo'lida harakatdan aslo to'xtamagan. Maktab yordamchi xo'jaligidan tushgan mablag'dan Qarshi, Samarqand, Toshkent, Moskva, Sankt-Peterburgda o'qiyotgan talabalarga oylik stipendiya ajratgan. 1966-yili maktab o'quvchisi Toshtemir Qodirov hozirgi Sankt-Peterburg shahrida akademik Igor Kurchatov izidan borib fizika fanlari nomzodligi dissertatsiyasini yoqlagan, – deydi muassis Guljahon Mardonova. – Mening bu harakatlarim ham otamning orzulari yo'lidagi kichik bir urinishdir.

Mana bugun shu voqealar sodir bo'lgani, adiba Guljahon Mardonova bilan suhbatlashganimga roppa-rosa besh yil to'ldi. O'tgan davr mobaynida tinib-tinchimas Guljahon har o'quv yili oldidan oliy o'quv yurtlariga talabalikka qabul qilingan o'quvchilar hamda o'z ishini chinakam fidoyilari bo'lgan o'qituvchilarni tanlov asosida diplom hamda pul mukofotlari bilan taqdirlab keldi.

Qizig'i shundaki, yildan yilga maktab o'quvchilarining milliy va xorijiy sertifikatlarni qo'lga kiritish hamda oliy o'quv

yurtiga talabalikka qabul qilinish ko'rsatkichlari oshib bordi. Maktab rahbarlari hamda o'qituvchilar ushbu mukofot barchada intilishni kuchaytirganini e'tirof etadilar. Ularning aytishicha, o'quvchilar bu mukofotni qo'lga kiritish bo'yicha hatto bahs boylashar ekanlar. Nima bo'lganda ham ko'rsatkichlar yildan yilga oshib borayotgani bu fikrlarning to'g'riligiga kishini ishonтиради.

– Bu yerda ortiqcha sir yo'q, – deydi maktab direktori Vasliddin Imomov. – Rahbar sifatida ustoz Omon Mardonov an'analarini davom ettiryapmiz, xolos. Ustozimiz qishlog'imiz nomini dunyoga tanitishni orzu qilgan. Biz uchun bu an'anani davom ettirish sharaftir.

Bu yil maktabni qirq besh nafar yigit-qiz tamomladi. Shundan o'ttiz uch nafari oliy o'quv yurtiga talabalikka qabul qilindi. Ular orasida Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasi, Toshkent arxitektura va qurilish universiteti, O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent davlat tibbiyot universiteti, Toshkent davlat transport universiteti kabi mamlakatimizning eng nufuzli oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirganlar bor. Ular orasida Kozimbek Abdullayev, Dilyora Aralova, Ismigul Xolmurodova, Marjona Normanovalar matematika, ingliz tili, tarix, ona tili, kimyo, biologiya, turk tili-dan sertifikatlarni qo'lga kiritgani va mudatidan oldin talabalikka qabul qilingani kishini quvontiradi.

Oliy o'quv yurti talabaligiga qabul qilinganlarning yigirma yetti nafari yuzdan 189 balgacha to'plagan. Agar adolat bilan baholansa, bitta maktab o'quvchilari uchun bu judayam a'lo ko'rsatkich. Natijada maktab bitiruvchilarning oliy o'quv yurtlariga kirishi bo'yicha sakson foiz natija ko'rsatib, viloyat umumta'lim maktablari orasida ikkinchi o'ringa ko'tarildi. Ko'rsatkichlardan quvongan tanlov muassisi adiba Guljahon Mardonova suhbatda ishtirok etgan o'quvchilardan to'rt nafarini besh yuz ming so'm pul, kitob va diplom, ikki nafarini bir million so'm pul, kitob va diplom, bir nafarini ikki million so'm pul,



O'rolboy QOBIL,
O'zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi a'zosi

kitob va diplom bilan taqdirladi. Bundan tashqari, tanlovda maktab biologiya fani o'qituvchisi Muqaddas Toshtemirova, ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi Aziza Toshmurodova, tarbiya fani o'qituvchisi Shahnoza Ochilovalarning har biri besh yuz ming so'm pul, kitob va diplomga loyiq ko'rildi. Muassisning suhbatiga yetib kelolmagan, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti islomiy moliya yo'nalishiga 178,4 bal bilan talabalikka qabul qilingan Jamshid Xo'jamov va ushbu universitetning menejment yo'nalishiga 173,25 ball to'plab talabalikka qabul qilingan Behruz Nurullayev, maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi Dilnavoz Xushsvaqtovalar qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi. Aytish joizki, ushbu tanlov Nizomiga ko'ra har yili uch nafar talaba hamda ikki nafar o'qituvchi taqdirlanishi belgilangan. Ammo kuzatishlarimizdan ma'lum bo'lyaptiki, muassis tanlov nufuzini yildan yilga oshirib bormoqda. Agar e'tibor qilgan bo'lsangiz, bu yil jami o'n to'rt nafar o'quvchi hamda o'qituvchilar e'tirof etildi. Xullas, mamlakatimiz mustaqilligining o'ttiz besh yilligi oldidan Qamashi tumanining chekka bir qishlog'ida sodir bo'lgan yangilikdan sizlarni ham bahramand etgim, badaxshonliklarning quvonchiga sherik qilgim keldi. Chunki maktab jamoasi erishayotgan yutuqlar ortida O'zbekiston miqyosida yoshlarga yaratilayotgan ulkan shart-sharoitlar va imkoniyatlar qad rostlab turadi. Badaxshonlik ilmga tashna, intiluvchan yoshlar esa Yurtboshimiz boshlayotgan ulkan islohotlarning chinakam ishtirokchisiga aylanadilar.

Tashabbus

“Mutolaa maskani” da



Namangan davlat pedagogika institutida STEAM laboratoriyasi, "Maktabgacha ta'lim: tajriba-sinov maydoni", "Bolani rivojlantiruvchi texnologiyalar markazi", Yaponiya ta'lim markazi, "Ma'rifat bog'i", mediamarkaz, "Mutolaa maskani" faoliyat boshladi.

Aytish kerakki, 2019-yili ilgari surilgan besh muhim tashabbusning to'rtinchisi yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilishga qaratilgan edi. Bu boradagi ishlar 2026-yili yana yangi bosqichga ko'tarildi. Prezidentning 2026-yil 15-yanvardagi "Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va aholi o'rtasida kitob o'qishga qiziqishni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan

oldinga aniq maqsad qo'yildi. 2026–2030-yillarda aholining kitobxonlik darajasini bir kishi yiliga o'rtacha 10 ta kitob o'qiydigan darajaga yetkazish belgilandi. Qaror asosida Yoshlar ishlari agentligi huzurida Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish jamg'armasini tashkil etish, yosh yozuvchilarni qo'llab-quvvatlash, bolalar adabiyotini rivojlantirish, xorijiy adabiyotlarni o'zbek tiliga va milliy adabiyotlarni xorijiy tillarga tarjima qilishni rag'batlantirish kabi muhim vazifalar ham belgilandi. Shuningdek, davlat idoralarida "Kitob burchaklari"ni tashkil etish ham nazarda tutilgan.

Agar har bir odam yil davomida o'rtacha 10 ta kitob mutolaa qilsa, bu bir yilda 10 ta yangi dunyo, 10 ta yangi qarash, 10 ta yangi tajriba bilan tanishish degani. Ayniqsa, pedagog uchun mutolaa masalasi nihoyatda muhim. Chunki bugungi talaba – ertangi o'qituvchi. Uning dunyoqarashi, nutqi, tafakkuri va ma'naviy qiyofasi kelajak

avlod tarbiyasiga bevosita ta'sir qiladi. Institutda professor-o'qituvchilarning Axborot-resurs markazidagi badiiy adabiyotlarni muntazam mutolaa qilishi, talabalar o'rtasida kitobxonlik tanlovlari tashkil etilishi bu yo'nalishdagi amaliy ishlarning bir ko'rinishidir. Ayniqsa, institut kutubxonasiga professor-o'qituvchilar, xodimlar hamda talabalar tomonidan kitoblar hadya qilinishi ezgu an'ana-ga aylanib, kitob fondining muntazam boyib borishiga xizmat qilmoqda. Bugun talabani kitob bilan uchrashtiradigan muhit, mutolaa qilishga undaydigan makon, fikr almashadigan do'stlar va ustozlar ham birdek kerak. Bu yerda talaba darsdan tashqari vaqtini mazmunli o'tkazadi, yangi asarlar bilan tanishadi, o'qigan kitoblari haqida fikr almashadi. Eng muhimi, mutolaa asta-sekin uning hayot tarziga aylanadi.

"Mutolaa maskani"da o'quv, siyosiy, badiiy hamda ilmiy-ommabop adabiyotlar keng o'rin olgan. Turli tashkilot va mualliflar tomonidan tuhfa qilingan kitoblar esa alohida javonlarda jamlangan. Ayni paytda muassasa fondida jami 5000 dan ortiq adabiyot mavjud. Bu maskan hali ko'p yoshlarni muvaffaqiyatli kelajak sari yo'llaydi deb umid qilamiz.

E'zozxon YOQUBBOYEVA,
Namangan davlat pedagogika instituti
Axborot-resurs markazi bo'lim mudiri

REKTORLARIM – YO‘LCHI YULDUZLARIM

(Davomi. Boshi 8-9-betlarda.)

Yangi davr amaliy ilm-fani klasterining yetakchisi



Texnika fanlari doktori, professor **Abdusalom Umarov** yarimo'tkazgichlar fizikasi, muqobil energetika manbalari va zamonaviy kompozitsion materiallar texnologiyasi sohasida mintaqadagi eng yetakchi olimlardan. Uch yuz ellikdan ortiq ilmiy ma-

qola, ko'plab xalqaro patent va monografiyalar muallifi bo'lgan bu olim fundamental nazariyani bevosita amaliyot va sanoat bilan integratsiya qilish bo'yicha samarali maktab yaratdi.

So'nggi yillarda professor Toshkent Amaliy fanlar universiteti rektori sifatida mutlaqo yangicha, zamonaviy boshqaruv modelini joriy etdi. Qotib qolgan standartlar qolipidan dadil chiqib, talabalarga nazariyadan ko'ra amaliy ko'nikmalarni berish, fanni bozor ehtiyojlari bilan bog'lashni bosh maqsad qilib belgiladi. Universitetda ilg'or texnologik laboratoriyalar tashkil etildi, xalqaro ta'lim dasturlari tatbiq qilindi va shaffof akademik muhit yaratildi. Olim inson umrining kamolot bosqichiga yetganda unga har kungi mayda hisobotlar, dars soatlari emas, to'plangan boy ilmiy tajribani xalqaro monografiyalarga aylantiradigan erkin va xotirjam sharoit kerak bo'ladi. Ko'plab maskanlarimiz tajribali olimlardan ham oddiy ijrochi kabi qog'ozboz-

lik talab qilayotgan bir paytda bu rektor menga yangi ijodiy parvoz maydonini taqdim etdi.

Ustoz meni Toshkent Amaliy fanlar universitetiga taklif etib, xalqaro tajribada keng tarqalgan, ammo yurtimizda deyarli uchramaydigan maxsus "tadqiqotchi-professor" maqomini joriy qildi va ushbu lavozimga tayinladi. Buning mohiyati shunda ediki, barcha ortiqcha ma'muriy yuklamalardan to'liq ozod etildim. Rektor shunday dedi: *"Siz kabi olimlar vaqtini behuda o'tkazmasligi kerak. Asosiy vazifangiz – o'zbek amaliy filologiyasini jahon miqyosiga olib chiqish, fundamental kitoblar yozish, doktorantlar tayyorlash va ilmiy loyihalarimizga bosh bo'lish! Universitet sizga barcha imkoniyatni yaratadi, siz faqat ilm qiling!"*

Rektorning bu kengfe'lligi va ilm kishisiga ko'rsatgan yuksak e'tibori tufayli bugun universitetimizda "O'zbek amaliy filologiyasi" ilmiy yo'nalishi jadal ravnaq topmoqda. Yangi monografiyalarimiz, gazeta va xalqaro jurnallardagi tahliliy maqolalarimiz hamda yosh tadqiqotchilar bilan olib borilayotgan amaliy seminarlarimiz ana shu erkin ijod muhitining samarasidir. Ustoz bugungi ilmiy faoliyatimning mustahkam suyanchig'i, yangi ufqlar sari yo'l ochayotgan saxovatli yo'lchi yulduzimdir.

Biz kimga yo'lchi yulduz bo'la olaymiz?

Fikrlar mantig'i yakunni kutayotir. Hayotimning turli fasllarida Termizdan Buxoroga, Qarshidan Toshkentgacha bo'lgan manzilgohlarda uchratganim bu ulug' rahbarlar taqdirim osmonida so'nmas yulduzlar kabi charaqlab turadi. Agar Termizda yoshlikdagi no-

chorligimda boshim silanib, boshpana berilmaganida; Buxoroda birinchi aspirantlik ishonchi qalbinga singdirilmaganida; Qarshida xorijiy til va doktorantura yo'li ochilmaganida; ma'muriy qafasdan asrab ijod erkinligi taqdim etilmaganida; poytaxt eshigi keng ochib berilmaganida; yangi maydonlarda boshqaruv mahorati o'rgatilmaganida; amaliy tilshunoslikdek milliy orzumizga yelkadosh chiqilmaganida va bugun Toshkent Amaliy fanlar universitetida tadqiqotchi-professor maqomida cheksiz ilmiy erkinlik yaratilmaganida – bugungi darajamdagi filolog olim sifatida shakllana olarmidim? Aslo yo'q! Iste'dod doimiy parvarishga muhtoj nozik niholdir. Unga o'z vaqtida mehr beradigan, sovuq shamollardan asraydigan va quyoshga intilishi uchun sharoit yaratadigan bag'rikeng bog'bonlar – ma'rifat-parvar rahbarlar zarur.

Bugun biz ham yoshlarga ustozlik qilyapmiz, yangi ilmiy avlodni shakllantirmoqdamiz. Shunday ekan, har birimiz o'zimizga jiddiy va vijdoniy savol berishimiz shart:

Bugun yonimizda mo'ltirab turgan, moddiy yoki ma'naviy madadga muhtoj yosh iqtidorlarning qanotini sindirib qo'ymayapmizmi?

Ularni arzimas qog'ozbozlik, majlisbozlik va quruq hisobotlar girdobida so'ndirib yubormayapmizmi?

O'zimiz ularning hayot yo'lida qanchalik adolatli, saxovatli va yo'l ko'rsatuvchi yo'lchi yulduz bo'la olaymiz?

Millatning intellektual kelajagi osmondan tushmaydi. U vaqtida iqtidorni payqab, uy-joyi, maoshi va ilmiy erkinligini o'ylab bag'rini ochgan mana shunday buyuk qalbli rahbarlarning, fidoyi murabbiylarning merosi va ularning ezgu an'analarini davom ettirishimizda yashaydi.

Taqriz

"IYMON IZLAB..." KITOBI HAQIDA



Meni kim tanib, kim tanimaydi. Til va adabiyot olamiga ozmi-ko'pmi aloqam bor. Qolaversa, tomirimda mashhur taqrizchi olim, yozuvchi va adabiyotshunos, hayotini xalqiga ma'rifat va ziyo tarqatish uchun bag'ishlagan noshir – otam, rahmatli Mahmud Sattorovning qoni oqib turgani ham qo'limga qalam olishimga sabab bo'ldi.

Taqdir taqozosi bilan bugun jamoatchilikning turli ijobiy va salbiy munosabatlariga matonat bilan bardosh berib, o'z yo'nalishida qat'iy davom etayotgan Maryam Mahmudova bilan tanishdim. Bu inson hayotimda ochilgan yangi sahifalar mohiyatini anglashimga yordam bergan eng aziz ustozlarimdan biri bo'ldi. Ustoz ulashayotgan ilmni qisman o'rganish, mualliflikdagi rus tilida yozilgan "O'zlikni anglash san'ati" va "Ma'rifatli ong maktabi" kitoblarini o'zbek tiliga tarjima qilish hamda psixologiyaning ushbu yo'nalishi bilan yaqindan tanishish nasib qildi.

"Beshikdan to qabrgacha ilm izla", deganlaridek, Maryam ustozning maslahati bilan pedagogika universitetida qayta tahsil olib, psixologiya sohasini ham o'rgandim. Yaqinda Maryam Mahmudovanning otasi bu foniy dunyoni tark etib, boqiy olamga rixlat qildi. Xuddi rahmatli otam kabi eng go'zal fasl – bahorda, aprel oyi oxirlarida... Yuragimdagi eski jarohatlar yana yangilandi chin dildan Mansurxon ota farzandlari va barcha yaqinlariga hamdardligim hamda ta'ziyamni bildirdim.

Mansurxon Mahmudov bilan shaxsan tanish bo'lmasam-da, u kishining nozikta'b, oliyjanob, bag'rikeng, qo'li ochiq, millatparvar va qarindoshparvar inson bo'lgani haqida ko'p eshitganman. Kasb-kori mutlaqo boshqa sohada bo'lsa ham dil amri bilan qalam tebratib, she'rlar bitgani va kuylar bastalagani haqida ham xabarim bor edi. Shu kunlarda Maryam Mahmudovanning tashabbusi bilan otasining she'rlari yodgorlik sifatida kitob holidan nashr etildi. Kitob "Iymon izlab..." deb nomlanib, did bilan ishlangan sifatli muqova va sahifalarda chop etilgan. Ayniqsa, kitob savdosidan tushgan daromad muhtoj ilm toliblarining o'qish xarajatlarini qoplashga yo'naltirish haqidagi tashabbus alohida tahsinga sazovordir.

Mazkur mo'jaz she'riy to'plamdan muallifning asosan 1973–2018-yillari shuningdek, yozilgan qariyb qirq besh-ellik yillik ijodi o'rin olgan. She'rlar xronologik tartibda joylashtirilgani bois, kitobxon muallif qalbining yoshlikdan to yetuklik davrigacha bosib o'tgan badiiy va ruhiy yo'lini kuzatish imkoniga ega bo'ladi. To'plam mazmunan bir necha yo'nalishni qamrab oladi.



"Shul firoq o'ti meni yondirdi, ahli zamon" kabi she'rlarni o'qigan har bir farzand qalbi larzaga kelishi shubhasiz.

Uchinchi yo'nalish esa ishqiylirik mavzudagi she'rlardan iborat bo'lib, ular asosan mumtoz g'azal shaklida bitilgan. Bu she'rlarda yor ishq, hijron azobi, visol shodligi va inson qalbining nozik kechinmalari badiiy obrazlar vositasida nafis ifoda etilgan. Shuningdek, kitobdan millat va Vatan taqdiriga bag'ishlangan she'rlar ham o'rin olgan. Ularda xalq dardi, milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'ulari samimiy aks ettirilgan. To'plamdagi yana bir muhim yo'nalish – Yaratganning eng ulug' ne'mati bo'lmish farzandlar uchun shukronalik hamda minnatdorlik tuyg'ulari bilan yozilgan she'rlardir.

Mazkur she'riy to'plam milliy qadriyatlariga hurmat, yuksak insoniy fazilatlarini ulug'lash va ma'naviy poklanish g'oyalarini targ'ib etishi bilan ahamiyatli. Muallifning samimiy uslubi, hayotiy mushohadalari va teran ruhiy kechinmalari har bir kitobxonni befarq qoldirmasligi hamda she'riyat ixlosmandlari tomonidan munosib baholani-shiga ishonaman.

Nargis TOSHXO'JAYEVA,
filolog, tarjimon, psixolog

Birinchi yo'nalish – diniy-tasavvufiy ruhdagi she'rlar. Ularda muallif Yaratganga muhabbat bilan yuzlanib, tavba, taqvo, sabr va hidoyat tushunchalari orqali inson qalbining ruhiy kamolot yo'li – "Sabotul ojizin"ni tinglab, "Itijo", "Rozilikdan topilguvchi barcha iddao" kabi she'rlarida yuksak badiiy ifoda etadi.

Ikkinchi yo'nalish – oilaviy ehtirom mavzusi, xususan ota-onaga bag'ishlangan marsiyalar turkumidir. To'plamning eng ta'sirchan sahifalari aynan shu she'rlar joy olgan sahifalardir. Barvaqt olamdan o'tgan ota-onaga bo'lgan sog'inch hamda ayriliq iztiroblari samimiy, tabiiy va ortiqcha bo'yoqdorliksiz ifodalan-gan. "Onajonim eslatar yurgan yo'llari",



Shapaloq

SEHRLI MUSIQA SADOLARI OSTIDA



Dunyoda shunday musiqalar borki, avval eshitganingda rosa quvonasan, diling yayraydi, keyin takror yangrasa, eshitib yig'laging keladi. Hatto nima qilishni ham bilmay qolasan.

Qaysi musiqa ekanini bilasizmi?

Nayning navosi, dersi?

Karnay sadosi, dersi?

Yo'q-yo'q, shahar bering, ming o'yla-nib, baribir topa olmaysiz!

Bu – telefonga keladigan SMS!

Oy boshida eshitilsa, xuddi bulbul sayragandek tuyuladi.

“Voy, maoshjon tushibdi-ku!” deb telefonning “peshonasidan” o'pib, yuragingizga mahkam bosib qo'yasiz.

Besh daqiqadan keyin yana o'sha ovoz eshitilsa, odamning yuragi shuv etib ketadi. Chunki ikkinchi SMS bankdan keladi:

“Hurmatli mijoz, kreditngiz uchun falon so'm yechib olindi...”.

Shu payt xuddi rahmatli Ergash Kari-movning kinodagi qahramoni kabi telefonni devorga urib, chil-chil sindirib, xumordan chiqqing keladi-yu... Ammo, telefon sho'rlikda nima ayb? U ham ko'chadan eshitgan gapini senga yetkazadigan xotiningga o'xshaydi: so'kasan, g'ijinasan, baqirasan – jim turaveradi.

Kredit degan jonivor juda qiziq-da. Sen uxlaysan – u uyg'oq! Sen ishlaysan – u poyloq! Sen pul topasan, u hisoblab o'tiradi.

Tashkilotimiz oylikni oyning oxir-

rog'ida beradi. Ammo kredit bunga qaramaydi. Kartaga pul “tiliq” etib tushishi bilan och kurkaday “lo'q” etib yutib yuboradi.

Sen esa xoh boshingni changalla, xoh yuragingni.

Bir kuni ishxonada hammadan qarz so'ray boshladim.

Qobildan so'radim – yo'q!

Sobirdan so'radim – yo'q!

Odilga o'zim bilmagan holda uchinchi marta iltimos qilib yuboribman. Gapirma-di. Basharamga bo'zrayib turdi-da, nari ketdi. Birdan avval so'raganim esimga tushib, hijolatdan yer yorilmadi, kirib ketmadim.

Bu ham mayli, qizig'i ish kunining oxiriga borib ro'y berdi.

– Aka, mabodo qarz berib tura olmay-sizmi?..

Shunday ortimga o'girilib qarasam, Odilboyning o'zi ko'zlarimga yetim buzoqdek mo'ltirab turibdi. Men ham xuddi o'zi kabi atayin basharasiga baqrayib jim turaverdim. Ketdi. Men qanday mulzam bo'lib undan nari ketgan bo'lsam, u ham xuddi shunday ketdi. Hisob: bir-u bir!

O'zi ishxonamizda kredit olmagan odamning o'zi yo'q. Hech bo'lmagani

televizor yoki muzlatkichni kreditga olgan. Qozon qaynovsiz qolgan kunlari mazza qilib muzlatkichni quchoqlab yotadi. O', galvars, muzlatkichni to'ldirishga moyanang urvoq ham bo'lmaydi-ku, boshingga urasanmi, deydigan mardning o'zi yo'q. Ha endi yaxshi niyatda, dersi. Mana shu “yaxshi niyat” millionlarni enasini ko'rsatyapti!

Qisir xayollarni bolalatib turganimda, so'xtasi sovuq kotibaning g'ijjakning tovushidek “nolasi” xayolimni yovvoyi kap-tardek uchirib yubordi.

– O', O'ljaboy aka, sizni xo'jayin cha-qiryaptilar.

– E, kelsinlar, kelsinlar!

To'g'risi, rahbarni tanimay qoldim. O'rnidan turib, ustalini aylanib kelib men bilan quchoqlashib ko'rishdimi-yey.

– Qalay, uy ichilar sog'salomatmi? Kelin, bola-chaqa deganday. Ha, darvoqe “chaqa” nobopligini... o'zim ham bila-man... Hmm... Xudo xohlasa, oy oxiriga tushirishga harakat qilayapmiz...

Rahbar men bilan ochiq-sochiq, uzoq gaplashdi. Qachondir og'zimdan chiqib ketganmi... eslolmadim yoki birorta hamkasb “gullab qo'ygani”mi, tomorqamning bir chetini sotgan-sotmaganimni so'raganida javob berolmay mulzam bo'lib qoldim.

U og'zimni poylayapti.

Men ko'zimni olib qochayapman.

“Rahbarga nima qizig'i bor ekan, to-morqamning yarmini sotgan-sotmaganimning?.. Yoki xaridor bo'lmoqchimi?.. Sotib o'g'il uylamoqchiman-ku... Uff!”

– Sotdingizmi, yo'qmi?..

– Ha... endi... xaridorlar kelib-ketib yotibdi. Savdo pishmayapti.

O'zimning yolgonimga o'zim tan berib yubordim. E'lon qo'yganimga uch oy bo'lgan bo'lsa, yolgon bo'lmasin, bit-tagina xaridor keldi.

– Endi, ukajon, siz bilan nafaqat rah-bar-xodimmiz, balki, og'a-inidekmiz... shu desangiz... – negadir tovushi pasaydi. – Gap o'rtamizda qolsin... ozroq kreditimiz bor edi. Shuni birdan yopib, qutulmasam, ishim yurishmayapti. Agar sotgan bo'lsa-ngiz, sizdan qarz so'ramoqchi edim.

Kim nima desa desin-u, shu payt ne-gadir birdan qaddim g'oz bo'lib ketgan-dek tuyuldi. Go'yo men rahbaru rahbarim xodimdek tuyulib ketdi.

– O'ylab ko'ramiz! – ustalni chertdim.

– Qani sotaveraylik-chi...

Ha, kredit shunday sehrli kuchga ega ekanki, istasa, ishxonadagi oddiy xodimni rahbardan viqorli qilib ko'rsatib qo'yar-kan.

Shu payt SMSning tovushi yangradi. Ko'zimga olam qorong'u ko'rinib ketdi. Hayriyat, mening telefonimga emas, rah-barimning telefoniga kelgan ekan SMS!..

Faxriddin RAHIMOV

IRRIGATSIYA VA SUV MUAMMOLARI ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

tayanch doktorantura (PhD), doktorantura (DSc) va stajyor-tadqiqotchilikka

2027-yil uchun quyidagi ilmiy yo'nalishlar bo'yicha

QABUL E'LON QILADI:

Tayanch doktorantura

- 05.09.07 – “Gidravlika va muhandislik gidrologiyasi” ixtisosligiga 3 nafar;
- 05.09.06 – “Gidrotexnika va melioratsiya qurilishi” ixtisosligiga 3 nafar;
- 06.01.02 – “Melioratsiya va sug'orma dehqonchilik” ixtisosligiga 3nafar.

Stajyor tadqiqotchilik

- “Gidrotexnika va melioratsiya qurilishi” ixtisosligiga 2 nafar;
- “Gidravlika va muhandislik gidrologiyasi” ixtisosligiga 2 nafar va “Melioratsiya va sug'orma dehqonchilik” ixtisosligiga 2 nafar.

Doktorantura

- “Gidravlika va muhandislik gidrologiyasi” 1 nafar;
- “Gidrotexnika va melioratsiya qurilishi” 1 nafar;
- “Melioratsiya va sug'orma dehqonchilik” 1 nafar.

Yuqoridagi ixtisosliklari bo'yicha stajyor-mustaqil izlanuvchilikka hujjat topshirish 15-sentabrdan 15-oktabrgacha davom etadi.

Eslatma: tanlovda ishtirok etish tartiblari, top-

shiriladigan hujjatlar ro'yxati Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-qarori bilan tasdiqlangan “Oliy ta'limdan keyingi ta'lim to'g'risida”gi Nizomda belgilangan.

Ustuvor yo'nalishlarga dissertatsiya ishi bo'yicha taqdimot qiladi. Dissertatsiya ishini to'liq yoritib beradi.

Murojaat uchun manzil: 100187, Toshkent shahri, Qorasuv-4 mavzesi, 11-uy. Tel/faks: (71) 202 47 85, (99) 434-43-28, (71) 202 47 85, (90) 946-43-28. e-mail: ismiti@minwater.uz

Jurayeva Nargiza Xusanboyevnaning 06.01.02 – Melioratsiya va sug'orma dehqonchilik ixtisosligi bo'yicha “Modellashtirish asosida sug'oriladigan yerlar-ni tuzsizlantirishda suvdan foydalanish samaradorligini oshirish(Sirdaryo viloyati misolida)” mavzusidagi(texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsi-yasining himoyasi Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy-tadqiqot instituti huzurida-gi ilmiy darajalar beruvchi DSc.17/2025.27.12.T.01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 25-sentabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100187, Toshkent shahri, Qorasuv-4 mavzesi, 11-uy.

Tel/faks: (99) 434-43-28; e-mail: ismiti@minwater.uz

Do'stnazarova Sanobar Ataulayevnaning 06.01.02 – Melioratsiya va sug'orma dehqonchilik ixtisosligi bo'yicha “Toshkent viloyatining o'tloqi bo'z tuproqlari sha-roitida soyani yomg'irlatib sug'orish samaradorligini baholash” mavzusidagi(tex-nika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Irrigatsi-ya va suv muammolari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.17/2025.27.12.T.01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 25-sentabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100187, Toshkent shahri, Qorasuv-4 mavzesi, 11-uy.

Tel/faks: (99) 434-43-28; e-mail: ismiti@minwater.uz

Qodirov Dilmurod Toxirovichning 05.09.06 – Gidrotexnika va melioratsiya qurilishi ixtisosligi bo'yicha “Suv ombori inshootlariga ko'chki xavfi ta'sirini baholash usullarini takomillashtirish (Ohangaron suv ombori misolida)” mavzusidagi(tex-nika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Irrigatsi-ya va suv muammolari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.17/2025.27.12.T.01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 2-oktabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100187, Toshkent shahri, Qorasuv-4 mavzesi, 11-uy.

Tel/faks: (99) 434-43-28; e-mail: ismiti@minwater.uz

Atayev Alisher Rizokulovichning 09.00.07 – Ma'naviyat tarixi va nazariyasi ixtisosligi bo'yicha “Ahmad Donish asarlarida XIX asr ijtimoiy-ma'naviy muhit muammolarining yoritilishi” mavzusidagi(falsafa fanlari bo'yicha) falsafa dok-tori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruv-chi DSc.21/2025.27.12.F.01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 25-sentabr kuni soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Bobur ko'chasi, 9-uy.

Tel: (55) 503-41-90; e-mail: imtiuz@umail.uz



MASTER-TRENERLARNI TAYYORLASHGA START BERILDI

15-sentabr kuni InterContinental Tashkent mehmonxonasi-da umumta'lim muassasalari o'qituvchilari uchun "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlarini tashkil etishga qaratilgan "Master-trenerlarni tayyorlash bo'yicha trening"ning ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Trening O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining tegishli buyrug'iga muvofiq, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi rahbarligida, Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti va Britaniya Kengashi hamkorligida tashkil etildi.

Tadbirda 13 ta hududdagi pedagogik mahorat markazlari va maktablardan master-trener sifatida tanlab olingan **320 nafar metodist va o'qituvchi** ishtirok etmoqda.

Treningning ochilish va plenar sessiyalarida ta'lim sohasining yetakchi mutaxassislari, xalqaro ekspertlar hamda pedagoglar ishtirok etib, zamonaviy ta'lim metodlari, xalqaro tajriba va pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi masalalari muhokama qilindi.

Ushbu treningdan ko'zlangan maqsad quyidagilardan iborat:

- uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimi doirasida "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati"ni sifatli tashkil eta oladigan va mentor-o'qituvchilarga metodik yordam bera oladigan master-trenerlarni tayyorlash;

- zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodik yondashuvlar bo'yicha ko'nikmalarni oshirish;

- xalqaro ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlikda tajriba almashish;

- umumta'lim muassasalaridagi o'quv jarayonlari va "Kelajak soati" darslarining samaradorligini oshirish;

- ta'lim jarayonida samaradorlikni ta'minlash va o'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash.

Trening doirasida ishtirokchilarga ijtimoiy-hissiy ta'lim(SEL), pedagogik refleksiya, sinf tadqiqoti, inklyuziv ta'lim, baholashning zamonaviy yondashuvlari, PISA, PIRLS va TIMSS xalqaro baholash dasturlari, shuningdek, ta'lim jarayonida sun'iy intellekt dan samarali, etik va huquqiy asoslarda foydalanish

bo'yicha amaliy bilim va ko'nikmalar berilmoqda.

15-sentabr kuni boshlangan trening **16-17-sentabr kunlari** Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutida 12 ta yo'nalish bo'yicha intensiv amaliy mashg'ulotlar bilan davom etadi. Mazkur trening yakunida tayyorlangan 320 nafar master-trener bir o'quv yili davomida 14 ta hududdagi 1500 ta tayanch maktabda faoliyat yuritadigan 4000 nafar mentor-o'qituvchilar faoliyatini muvofiqlashtirish hamda 350 mingdan ortiq o'qituvchi-

lar uchun tashkil etiladigan kasbiy rivojlanish mashg'ulotlariga metodik rahbarlik qilishi ko'zda tutilgan.

Mazkur trening ta'lim sifatini oshirish, pedagoglarning zamonaviy kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish va ilg'or xalqaro tajribalarni ta'lim amaliyotiga keng joriy etish yo'lidagi muhim qadamlardan biri bo'ldi.

Shodiyona XUSHMURODOVA,
"Ma'rifat" muxbiri

Ma'rifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi,
O'zbekiston oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi,
O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari
kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Indeks: 149, 150. V-6191. Tiraji-6930.
Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan.
Qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFON:

Tel/faks: (55) 512-01-50



"Ma'rifat" dan materiallarni ko'chirib bosish tahririyat ruxsati bilan amalga oshirilishi shart. Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning saytiga o'tish uchun ushbu QR-kodni skanerlang:

Ⓣ – tijorat belgisi.

Dizayner: Malohat Toshova.
Navbachi muharrir: Faxriddin Rahimov.
Navbachi: Bobomurod Xudoyberdiyev.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

MANZILIMIZ:
100099, Toshkent shahri,
Darvozakent ko'chasi, 60-uy.
Web-site: www.marifat.uz

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

